

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI



FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH KAFEDRASI
FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH FANI BO‘YICHA
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

4 KURS

Bilim sohasi:	500000-Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy soha
Ta’lim sohasi:	510000-Sog‘liqni saqlash
Ta’lim yo‘nalishi:	5510500-Farmatsiya(turlari bo‘yicha) 5510600-Sanoat farmatsiyasi (turlari bo‘yicha)



Toshkent – 2018

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va O‘rta Maxsus Ta’lim Vazirligi
Toshkent Farmasevtika Instituti
Sog‘liqni Saqlash Vazirligi

FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH KAFEDRASI

Bilim sohasi:	500000-Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy soha
Ta’lim sohasi:	510000-Sog‘liqni saqlash
Ta’lim yo‘nalishi:	5510500-Farmatsiya(turlari bo‘yicha) 5510600-Sanoat farmatsiyasi (turlari bo‘yicha)

Toshkent – 2018

***Farmatsevtika ishini tashkil qilish fani bo'yicha
o'quv-uslubiy majmua
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil " " ---
----- tasdiqlanadigan o'quv fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.***

Tuzuvchilar:

Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrası mudiri,
SH.Z.Umarova f.f.n. dotsent
Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrası dotsenti, b.f.n.
Z.SH.Xidoyatova
Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrası assistenti,
M.T.Azimova

Taqrizchilar:

Islamova M.Z.	Farmatsevtlar malakasini oshirish fakulteti "Farmatsiya" kafedrası katta o'qituvchisi
Imomov S.I.	"Qorakamish dorixonalari" xususiy korxona raxbari ,f.f.n.

Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanning o'quv-uslubiy majmuasi
Soha uslubiy kengashining 2018 yil _____ dagi _____-sonli yig'ilishida muxokama
qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan

Soha uslubiy kengash raisi Tojiev M.A.

Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanning o'quv-uslubiy majmuasi
Institut Markaziy uslubiy kengashining 2018 yil _____ dagi _____-sonli yig'ilishida
muxokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan

Markaziy uslubiy kengashining raisi T.A.Nabiev

Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanning o'quv-uslubiy majmuasi
Institut Kengashining 2018 yil _____ dagi _____-sonli yig'ilishida muxokama
qilingan va tasdiqlangan

Kengash ilmiy kotibi F.X.To'xtaev

Mundarija

1-mavzu	Farmatsevtika tovarlarini saqlash.....	6
2-mavzu	Giyoxvandlik dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar muomalasi.....	9
3-mavzu	Dorixonalarda sanitar tartib.....	21
4-mavzu	Dorixonalarda informatsion texnologiya dasturlarini (M-Apteka) qo'llash.....	25
5-mavzu	Farmatsevtika sanoati korxonalarida xalqaro sifat standartlari va dori vositalar assortimenti.....	33
6-mavzu	Ulgurji savdo faolitini tashkilashtirishda meoriy-qonuniy baza...	45
7-mavzu	Farmatsevtik etika va deontologiya.....	48

1-mavzu	Farmatsevtika tovarlarini saqlash	
2-mavzu	Dori vositalarini saqlash.....	56
3-mavzu	Giyoxvandlik dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar muomalasi.	
4-mavzu	Giyoxvandlik dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar muomalasiga oid meoriy xujjatlar.....	60
5-mavzu	Dorixonalarda sanitar tartib.	
6-mavzu	Sanitar qoidalar va meyorlar aks ettirilgan xujjatlar xaqida malumotlar.....	72
7-mavzu	Dorixonalarda infotmatsion texnologiya dasturini qo‘llash.	
8-mavzu	(M-Apteka) dasturini qo‘llash.....	77
9-mavzu	Farmatsevtika sanoati korxonalarida xalqaro sifat standartlari	
10-mavzu	Dori vositalar assortimenti.....	83
11-mavzu	Ulgurji savdo faoliyatini tashkilashtirishda meoriy-qonuniy baza	
12-mavzu	Ulgurji savdo faoliyatini tashkilashtirishda GDPning ahamiyati.....	94
13-mavzu	Farmatsevtik etika va deontologiya.	
14-mavzu	Aholiga xizmat ko‘rsatish standarti.....	98
Keyslar to‘plami.....		106
Mustaqil ta’lim mavzulari.....		109
Kurs ishi mavzulari.....		113
Glossariylar.....		111
Ilovalar.....		112
Fan dasturi.....		112
Ishchi o‘quv dasturi.....		122
Tarqatma materiallar.....		131
Testlar.....		183
Baxolash mezonlari.....		231
Adabiyotlar ro‘yxati.....		233

I. O‘quv materiallari: MA’RUZA MATERIALLARI

1 mavzu: Dorixonalarda farmatsevtik tovarlarni saqlanishini tashkil qilish

Reja:

1. Tovarlarni saqlash .
2. Tez va engil alanganuvchi prekursorlarni saqlash.
3. Dezinfektsiyalovchi vositalar , bog‘lov materiallari , rezina buyumlarini saklash.
4. Rezina buyumlarni saklash

Tayanch iboralar: omborxona, tovarlarni saqlash

1.1 Tovarlarni saklash

- ▶ Tovarlarni saqlash tovar xarakatining barcha buginlarida, ya’ni tayyor maxsulotni ishlab chikarishdan boshlab uni iste’mol qilish mobaynida amalga oshiriladi.
- ▶ *Tovarlarni saklash* — bu tovarning sifati va mikdorini uzgartirmaslik maqsadida omborxonalariga joylashtirish va saqlash jarayonidir. *Saklashdan asosiy maksad* — tovarlarning boshlangich xossalarning barqarorligini ta’minlash demakdir. Tegishli saklash xonalarining mavjudligi, zarur saklash tartiblarini yaratilishi, saklash davomida tovarlarni turi joylashtirishni tashkil qilish -tovarlarni saqlash shart-sharoitlarining asosini tashkil kiladi.
- ▶ Omborxonada dorivor usimliklar xom ashyosi sukchaklarda saqlanadi buning uchun yopik yashiklar, koplari (kesilgan xom ashyo), ikki kavatli k,oplar, karton uramlari (poroshoklar) bulishi kerak.
- ▶ Uz tarkibida efir moylarini saqlovchi (masalan: shalfey o‘ti), ayrim gigroskopik o‘tlar, barglar, mevalar (masalan: angishvonagul bargi, dalachoy va boshk,alar) aloxida yaxshi yopiladigan idishda saqlanadi.
- ▶ Zaxarli va giyoxvand moddalar saqlovchi dori vositalari aloxida xonalarda, maxsus kulflanadigan temir shkaflarda saqlanadi
- ▶ Omborxonalar va moddiy xonalarda saqlash uchun farmatsevtik maxsulotlarning xususiyatlariga bog‘lik muayyan sharoitlar asosida amalga oshiriladi. Saqlash sharoitlarining (xavo xarorati va namligi) asosiy ko‘rsatkichlarining nazoratini olib borish uchun xar bir xonada termometr va gigrometr bo‘lib, ular saqlash uchun ‘ xonalarining ichki devorlarida isitkich asboblardan erdan 1,5— 1,7 metr balandlikda, eshikdan esa 3 metr masofada joylashgan buladi. Xavo xarorati va namligi bir kunda kamida 1 marta

tekshiriladi, asboblarning ko'rsatkichlari xar bir bulimda bulishi kerak va maxsus xisob daftarida belgilanadi.

1.2 Tez va engil alanganuvchi prekursorlarni saklash

- ▶ *Portlovchi va tez alanga oluvchi vositalar* aloxida (quruq, to'g'ri kuyosh nuridan, yong'in va er osti suvlaridan ximoyalangan, birinchi kavatda, temir-beton koplama xamda metall eshikli) xonalarga joylanishi kerak, xonaning poli eshigidan ichkariga qiyalanib sementlangan, o'yilmagan tekis bulishi kerak.
- ▶ Tez alanganuvchi va yonuvchi suyuqliklar solingan idishlar zarbalardan saqlaydigan yoki agdaruvchi ballonlarda bir katorda saqlanadi.
- ▶ Idishni suyuq moddalar bilan tuldish darajasi 90% xajmdan ortmasligi kerak. Katta mikdordagi spirtlar metall idishlarda, 75%dan ortik bo'lmagan xajmda to'ldirilib saqlanadi.

1.3 Dezinfeksiyalovchi vositalar , bog'lov materiallari , rezina buyumlarini saklash.

Dezinfeksiyalovchi vositalar (xloramin V va boshkalar) germetik berkitilgan idishlarda saqlanadi. Saqlash uchun xona aloxida bo'lib va plastmassa, rezina xamda metall buyumlar xamda tozalangan suv olinadigan xonalardan uzokrokda joylashgan bo'lishi kerak. Bunda saqlash joyi salkin va yorug'likdan ximoyalangan bo'lishi lozim.

- ▶ Boglov materiallari yoqoch yashiklarda, kuruk , xavosi toza xonalarda, changdan va xasharotlardan nariroklarda saqlanishi kerak. Nosteril materiallarni isitilmaydigan onalarda saklash mumkin.

Steril materiallar xarorati o'zgarishi kam buladigan xonalarda saklanishi kerak, bunda xarorat uzgarganda kadoklangan tovar ichiga xavo kirmasligini ta'minlash lozim.

Sterillangan boglov vositalarini omborxonada chiqqan yiliga karab saklash kerak, chunki xar besh yildan sung uning sterilligini xar yili tanlab tekshirib turiladi. Urami buzilgan yoki nam tortgan bo'lsa, u xolda maxsulot sterillanmagan xisoblanadi.

1.4 Rezina buyumlarni saklash

- ▶ *Rezina buyumlarini* saqlovchi xonaga quyosh nuri tushmasligi kerak, kupincha ertulalarda, korong'i joylarda saklanadi
- ▶ Ba'zi rezina buyumlarni saklashda ma'lum talablarga rioya Kilish kerak:
- ▶ grelkalar, tagiga qo'yiladigan chambaraklar, muz solinadigan xaltachalar biroz shishirib qo'yiladi;
- ▶ Asboblarning echiladigan rezina kismi metall kismidan aloxida saklanadi;
- ▶ qo'lgoplar, bujlar, elastik kateterlar va boshkalar kutilarda zich yopilgan xamda ustiga talk sepilgan xolda saklanadi. Pastki qavatlardagi buyumlar ezilib va bosilib ketmasligi uchun ularni bir necha kavat kilib saqlash mumkin emas.
- ▶ "YAxshi saqla amaliyoti " Good storage practice (GSP)
- ▶ 1 mart 2013 yildan 4 mart 2018 yilgacha amal qilinadi.
- ▶ (O'zbekiston Davlat standarti.)

Ushbu standart 8 ta bo'limdan iborat.

- ▶ 1. Qo'llanish soxasi.
 - ▶ 2. Atama va tariflar
 - ▶ 3. Xodimlar.
 - ▶ 4. Xona va asbob uskuna.
 - ▶ 5. maxsulotni saqlashga talablar
 - ▶ 6. Maxsulotni qaytarish.
 - ▶ 7. YUklash va tashish.
 - ▶ 8. Maxsulotni chaqirib olish.
-
- ▶ 1. Ushbu standart O'Z R xududida dori vositalarini tayyorlash, ishlab chiqarish, olib kirish va olib chiqish ulgurji va chakana sotish bilan shug'illanuvchi xo'jalik yurutuvchi subektlarga taalluqli.
 - ▶ 2. Dori vositasi, yordamchi modda, yaroqlilik muddatini tugash sanasi, kontaminatsiya (ifloslanish), yorliqlash, material, meyoriy talablar, o'rov materiali, saqlash kabi so'zlarning manosi keltirilgan.
 - ▶ 3. Dori vositasini sifatini saqlash uchun xar bir saqlash uchastkasida etarli miqdorda malakali xodim bo'lishi kerak.
 - ▶ 4. Saqlash zonalariga begona shaxslar kiritilmaydi. Saqlash sharoitlarini (xarorat yoki nisbiy namlik) nazorat qilish lozim.
 - ▶ Monitoring uchun mo'ljallangan o'lchash vositalari 1 yilda 1 marta qiyoslash ko'rigidan o'tkazilishi lozim.
-
- ▶ 5. Maxsulotni saqlash zo'nalarida yaroqlilik muddati o'tgan maxsulotlar bilan ish olib borish bo'yicha yozma yo'riqnomalar va xisobotlar bo'lishi lozim.
 - ▶ Materiallar va dori vositalarini olishda xar bir olingan seriya buyurtmaga mosligi yuzasidan tekshirilishi, yorliqlanishi, seriya raqami tekshirilishi lozim.
 - ▶ 6. Qaytarilgan maxsulotlar, barcha zaxira va xisobotlar saqlanishi lozim.
 - ▶ Qaytarilgan maxsulotlar karantinga qo'yilishi lozim.
 - ▶ 7. Zarur bo'lganda tashish sharoiti, xaroratni nazorat qilish uchun asbob uskunalar ishlatish lozim.
 - ▶ Materiallar va dori vositalarini yuklash va tashishni faqat maxsulotni omborxonadan berish bo'yicha farmoish olingandan so'ng amalga oshirish lozim.
1. Sifati bo'yicha shubxa bo'lgan yoki sifati yaxshi emasligi to'g'risida ishonchli malumotlar bo'lgan dori vositalari va materiallarni tez va samarali chaqirib olishni amalga oshirish jarayoni ishlab chiqilishi lozim
-
- ▶ O'Z R SSV ning Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi boshlig'i X. K. Jalilov.
 - ▶ Farmakopeya qo'mitasi raisi muovini G. E. Boltaboeva.
 - ▶ Dori vositalari sifatini nazorat qilish va standartlash laboratoriyasi mudiri A. F. Dusmatov.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Tovarlarni saqlash .
2. Tez va engil alanganuvchi prekursorlarni saqlash.
3. Dezinfeksiyalovchi vositalar , bog'lov materiallari , rezina buyumlarini saklash.
4. Rezina buyumlarni saklash

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshmuhamedov e.R., Zaynutdinov X.S., Komilov A.M., Muhamedova R.A., Juravlyova E. B., Islomova M.Z. Farmatsevtika ishini tashkil qilish(lotin alifbosida darslik) Professor A.N. YUnusxo'jaevning umumiy tahriri ostida.-Toshkent, 2007-224b.
2. Toshmuhamedov e.R., Zaynutdinov X.S., Komilov A.M., Muhamedova R.A., Juravlyova e.B., Islomova M.Z. Farmatsevtika ishini tashkil qilish (kiril alifbosida darslik) Professor A.N. YUnusxo'jaevning umumiy tahriri osida.-Toshkent, 2007-223b.
3. Toshmuhamedov e.R., Zaynutdinov X.S., Komilov A.M., Muhamedova R.A., Juravlyova E. B., Islomova M.Z. Farmatsevtika ishini tashkil qilish. Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2008. -192 b.
5. "Farmatsevtika ishini tashkil qilish" fanidan "Farmatsevtika ishini tashkil qilish" o'quv qo'llanmasining i-qismi Toshkent 2016, 254-bet

2- Mavzu: DORIXONADA GIYOHVAND DORI VOSITALARI, PSIXOTROP MODDALAR VA PREKURSORLAR MUOMALASI

Reja:

1. Giyoxvandlik vositalarini nazorat qilish bo'yicha xalqaro faoliyat va giyoxvandlik vositalarini nazorat qilish to'g'risidagi so'nggi xalqaro shartnomalar tarixi
- 2 O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi Narkotiklar nazorati qo'mitasining Nizomi

3. Giyoxvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatini litsenziyalash
4. Litsenziya olish uchun zarur hujjatlar
5. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash

Tayanch iboralar: giyoxvandlik vositalar, psixotrop moddalar, prekursorlar

10.1 Giyoxvandlik vositalarini nazorat qilish bo'yicha xalqaro faoliyat va giyoxvandlik vositalarini nazorat qilish to'g'risidagi so'nggi xalqaro shartnomalar tarixi

- Giyohvandlik vositalarini suiiste'mol qilish bilan kurashish sohasidagi xalqaro shartnoma huquqi XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Hozirgi vaqtda giyoxvandlik vositalarini nazorat qilish to'g'risida bir qator ko'p tomonlama shartnomalar mavjud bo'lib, ularning barchasi 1912 va 1988 yillar oralig'ida tuzilgan. Ular giyoxvandlik vositalarini nazorat qilishning mavjud xalqaro tizimi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.
- Giyohvandlik vositalarini nazorat qilish bo'yicha amal qilayotgan asosiy xalqaro shartnomalarga 1961 yildagi giyoxvandlik vositalari to'g'risida YAgona Konvensiya (mazkur Konvensiyaga tuzatishlar to'g'risida 1972 yildagi Bayonnoma asosida kuchaytirilgan), 1971 yildagi Psixotrop moddalar to'g'risidagi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1988 yilda qabul qilingan Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyalari kiradi.

1971 yildagi psixotrop moddalar to'g'risidagi Konvensiya

- Xalqaro hamjamiyatning mazkur moddalarning zararli ta'siridan tashvishlanishi oqibatida 1971 yildagi Psixotrop moddalar to'g'risidagi Konvensiya qabul qilindi. 1976 yil 16 avgustda kuchga kirgan 1971 yildagi Konvensiyaga muvofiq ushbu moddalar xalqaro huquqiy nazorat ostiga olindi.
-

Birlashgan Millatlar tashkilotining Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurash to'g'risida 1988 yildagi Konvensiyasi

- Giyohvandlik vositalarini tayyorlash va ishlab chiqarishga nisbatan esa, 1988 yildagi konvensiya noqonuniy o'stiriladigan, tarkibida giyohvandlik vositasi bo'lgan o'simliklarni yo'q qilishga doir qoidalarni o'z ichiga oladi.

10.2 O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi Narkotiklar nazorati qo'mitasining Nizomi

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi Narkotiklar nazorati qo'mitasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1961 yil Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi YAgona Konvensiyaning 18-moddasi, Psixotrop moddalar to'g'risidagi 1971 yil Konvensiyasining 16-moddasi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1988 yil Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyaning 12-moddasi asosida faoliyatini yuritadigan milliy vakolatli idorasidir.

- O‘zbekiston Respublikasi hududiga belgilangan tartibda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib kirish) uchun sertifikatlarni berish;
- O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar tranziti uchun taqdim etilgan arizalarni o‘rganib, belgilangan tartibda ruxsatnoma berish;
- Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni yopiq turdagi bojxona omboriga joylashtirish, arizalarni belgilangan tartibda o‘rganib, ruxsatnoma berish;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1961, 1971, 1988 yillar Konvensiyalari tavsiyalariga ko‘ra giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro‘yxatlarini tuzish ustida ish olib borish;
- Huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa organlar bilan hamkorlikda litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslarni litsenziya shartlari va talablarini bajarishlarini tekshirish;
- Huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa organlarga O‘zbekiston Respublikasida Davlat nazoratiga olingan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalasi bo‘yicha maslaxatlar berish.

10.3 Giyoxvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatini litsenziyalash

- O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyat yuridik shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda beriladigan litsenziya asosida amalga oshiriladi.
- 8-modda O‘zR ning 15.12.2000 yil 175-II-son Qonuni I bo‘lim 25-1-modda bandiga asosan tahrirga kiritilgan.
- **8-modda. Litsenziya berishni rad etish asoslari**
- Quyidagilar litsenziya berishni rad etish uchun asos bo‘ladi:
 - -yuridik shaxslar tomonidan litsenziya olish uchun qonun hujjatlari talablariga nomuvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar taqdim etilganligi;
 - -giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatning xavfsizligini ta‘minlash uchun sharoitlar yo‘qligi;
 - -xizmat vazifasi taqozosiga ko‘ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan ishlashga aloqador xodimlarning orasida surunkali ruhiy kasalliklar, giyohvandlik, zaharvandlik, alkogolizm tufayli dispanser hisobida turuvchi shaxslarning mavjudligi;
 - -xizmat vazifasi taqozosiga ko‘ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan ishlashga aloqador xodimlarning orasida qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslarning mavjudligi;
 - -yuridik shaxslar tomonidan litsenziya olish uchun taqdim etilgan hujjatlarda shubhali va noto‘g‘ri ma‘lumotlarning borligi;
 - -litsenziya talabgorining litsenziya talablari va shartlariga muvofiqligi.
- I BOB O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING 2000 YIL 31 IYUL “GIYOXVANDLIK VOSITALARI, PSIXOTROP MODDALAR VA PREKURSORLARNI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDI ORQALI OLIB KIRISH, OLIB CHIQISH VA TRANZIT TARZIDA O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA”GI 293-SON QARORI
- Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali olib kirish, olib chiqish va tranzit tarzida o‘tkazish to‘g‘risida

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi. Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi: giyohvandlik (narkotik) vositalari — giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar;

psixotrop moddalar — psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar; prekursorlar — prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar; giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analiglari — kimyoviy tuzilishi va xossalariga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xshash, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

preparat — moddalarning har qanday fizik holatdagi, tarkibida bitta yoki bir nechta giyohvandlik vositalari yoxud psixotrop moddalar bo'lgan aralashmasi;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi — giyohvandlik vositalari, — psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish), tranzit tarzida o'tkazish, saqlash, berish, realizatsiya qilish, taqsimlash, olish, tashish, jo'natish, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilish, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni yetishtirish; giyohvandlik (narkomaniya) — giyohvandlik vositalariga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik; zaharvandlik (toksikomaniya) — psixotrop moddalarga, shuningdek dorilik xususiyatiga ega bo'lmagan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy, giyohvandlik vositalarga o'xshash ruhiyatga faol ta'sir etuvchi moddalarga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik.

manba: O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 9-son, 210-modda; 2001 y., 1-2-son, 23-modda; 2003 y., 1-son, 8-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 41-son, 405-modda

qonun	VI	bo'lim	vA	46	moddadan	iborat:
I.		umumiy				qoidalar
II.		giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat				
III.		giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish shartlari				
IV.		giyohvandlik vositalari. psixotrop moddalar va prekursorlardan foydalanish				
V.		giyohvandlik vositalari. psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga monelik qilish				
VI.		giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarga beriladigan narkologik yordam				

Ushbu qonun giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishiga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda ularning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga monelik qilish, fuqarolar sog'lig'ini saqlash hamda davlat xavfsizligini ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar quyidagi ro'yxatlarga kiritiladi:

1. Muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida taqiqlangan giyohvandlik vositalari ro'yxati
2. Muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida cheklangan giyohvandlik vositalari ro'yxati
3. Muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida cheklangan psixotrop moddalar ro'yxati
4. Muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida cheklangan prekursorlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 16-iyuldagi "Giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlar muomalasi bilan aloqador bo'lgan litsenziya faoliyati to'g'risida" gi 315-son qaroriga muvofiq bu faoliyat turiga quyidagilar kiradi:

1. Giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqib ketish).
2. Giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash.
3. Giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarni tarqatish va sotish.
4. YAngi giyohvand vositalar, psixotrop moddalarni ishlab chiqish.
5. Giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlash.
6. Giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlardan ilmiy va o'quv maqsadlarida foydalanish.
7. Giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarni yo'q qilish.
8. Giyohvand vositalarni saqlovchi o'simliklarni madaniylashtirish.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash bo'yicha texnik talablar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2001 yil 17 iyundagi "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash bo'yicha texnik talablar to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi qo'shma qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu qo'shma qaror O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2001 yil 11 iyulda 1048-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, 2001 yil 21 iyuldan boshlab kuchga kirgan. Ushbu qo'shma qaror bilan tasdiqlangan nizom "giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunining 13-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 29 yanvardagi 56-sonli "Giyoxvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi giyoxvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalasi bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega litsenziya talabgori-yuridik shaxslarning giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash uchun mo'ljallangan ob'ekt va binolarining texnik mustaxkamligini xamda qo'riqlash –yong'inga qarshi moslamalar bilan jihozlashga doir texnik talablarni belgilaydi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash, berish, sotish, taqsimlash va hisobga olish shartlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2001 yil 28 noyabrda "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni hisobga olish, tarqatish, sotish, berish, saqlash sharoitlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 527-son buyrug'iga asosan amalga oshiriladi. Mazkur nizom "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni asosida tuzilgan. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat turlari uchun litsenziyalari bo'lgan yuridik shaxslar o'z faoliyatlari to'g'risida maxsus vakolatli organga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobot taqdim etadilar. Hisobot taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 8 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat bo'yicha hisobotlar yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 6-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.


Prikaz MzRUz № 197 (zaregistrovan Ministerstvom YUstitsii RUz 23 aprelya 2014 goda) o vnesenii izmeneniy i dopolneniy v Polojenie ob usloviyax xraneniya, otpuska, realizatsii, raspredeleniya, uchyota narkoticheskix sredstv, psixotropnyx veshchestv i prekursorov. Pri priyome retseptov na lekarstva, v sostav koto'ryx vxodyat narkoticheskie sredstva, farmatsevt technolog obyazan utochnit vozrast bolnogo, proverit pravilnost dozirovki, sovместimost propisannyx ingredientov v lekarstvennoy forme i podcherknut krasnoy ruchkoy naimenovanie narkoticheskogo sredstva.

•Postanovlenie o vnesenii izmeneniy i dopolneniy v postanovlenie «Ob utverjdenii Polojeniya o texnicheskix trebovaniyax po xraneniyu narkoticheskix sredstv, psixotropnyx veshchestv i prekursorov» (Sobranie zakonodatelstva RUz, 2014., 27 str. 331).

- Litsenziyalovchi organga litsenziyalar berish to'g'risidagi xujjatlarni ko'rib chiqish, ularning muddatlarini uzaytirish, ular yuzasidan xulosalar tayyorlash uchun ekspert komissiyasi tashkil etiladi. Ekspert komissiyasi to'g'risidagi nizom va uning shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Giyohvandlik moddalarini nazorat qilish Davlat komissiyasi bilan kelishgan holda litsenziyalovchi organ tomonidan tasdiqlanadi. Ekspert komissiyasi tarkibiga majburiy tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy ahborot-tahlili markazi vakili kiritiladi.
- Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat faqat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:
 - Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish);
 - Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash;
 - Giyoxvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni sotish (berish), taqsimlash;
 - Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni tashish;
 - Giyoxvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqish;
 - Giyoxvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish, tayyorlash;
 - Giyoxvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun, shu jumladan, tibbiyot va veterinariyada foydalanish;
 - Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ilmiy va o'quv maqsadlarida foydalanish;

- 10.4 Litsenziya olish uchun zarur hujjatlar
- Litsenziya olish uchun litsenziya talabgori litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:
 - Litsenziya berish to'g'risidagi ariza, unda quyidagilar ko'rsatiladi:
 - YUridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan o'rni (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bank muassasasidagi hisob raqami; litsenziyalanayotgan faoliyatning yuridik shaxs tomonidan amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan turi va faoliyatning ko'rsatilgan turi amalga oshiriladigan muddat;
 - YUridik shaxsning ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvoxnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;
 - Litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun yig'im to'langanini tasdiqlovchi hujjat;
 - Ichki ishlar va prekursorlarni saqlash bo'yicha texnik talablarga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi;
 - Ichki ishlar hududiy organining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash bo'yicha texnik talablarga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi;
 - Ichki ishlar hududiy organining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni tashishga ruxsatnomasi;
 - Sanitariya nazorati organlarining binolarining yoki shart-sharoitlarning belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risidagi hulosasi;
 - Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi hududiy organining ishlab chiqarish sharoitlarining ekologiya talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi (prekursorlar ishlab chiqarish bilan bog'liq faolmiyat amalga oshirilgand);
 - Litsenziyalanadigan faoliyat turini amalga oshirish uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar, muhandislik kommunikatsiyalari va texnologiya asbob-uskunalariga mulk huquqini yoki boshqa ashyoviy huquqni tasdiqlovchi hujjat;
 - Er uchastkalaridan foydalanishning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek, Sog'liqni saqlash vazirligining tarkibida giyoxvandlik moddalari bo'lgan o'simliklarga

ehtiyoj to'g'risidagi xulosasi (tarkibida giyohvandlik moddalari bo'lgan o'simliklarni o'stirish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirishda).



10.5 Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash

- Ekspertizaga taqdim etilgan barcha materiallarning saqlanishiga javobgarlik mazkur ekspertizasini amalga oshirish buyurilgan ekspert zimmasiga yuklatiladi.
- Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning yaxshi saqlanishini ta'minlovchi kerakli sharoitlarni yaratish uchun javobgarlik, mazkur turdagi ekspertizani o'tkazishni amalga oshiruvchi ekspert-kriminalistika bo'limi boshlig'iga bevosita yuklanadi
- Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar alohida yopiluvchi, muhrlanuvchi seyflar, qo'riqlash va yong'inga qarshi signalizatsiya bilan ta'minlangan xonalarda saqlanishi kerak. Alohida yopiluvchi va muhrlanuvchi seyflar bo'limlarida bir necha ekspertlarning foydalanishlariga yo'l qo'ymaydi.

- Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash maxsus ajratilgan joylar va jixozlangan binolarda qonunchilik tomonidan oʻrnatilgan tartibda amalga

1	Morfin gidroxlid	0,3
2	Promedol (trimeperidin)	5,0
3	Omnopon	0,3
4	Kokain	0,2
5	Dionin (etilmorfin)	0,1
6	Estotsin gidroxlarid	0,3
7	Kodein	70,3
8	Opiy	833,3
9	Fentanil	0,006

oshiriladi.

Tibbiy va ilmiy maqsadlar uchun giyohvandlik vositalari sarfining cheklangan ruxsat berilgan nomlari
(aholining har 1000 kishisiga bir yilda grammlarda)

Уйда вафот этган онкологик беморларнинг қариндошлари томонидан топширилган
фойдаланилмаган гидривандлик воситалари ва фойдаланилмаган рецентларни
ҳисобга олиш журнали

230

Г.р	Тампан саноқи	Беморнинг исми, фамилияси ва оқдашнинг исми, лавозими, қобул қилинган вақти	Гидривандлик препаратлари ва рецентларнинг умумий миқдори	Гидривандлик объектларнинг сони ва рецентларнинг миқдори	Топширилган гидривандлик воситаларининг сони	Ампулалар, кукулар, таблеткалар ва рецентлар миқдори	Топширувчининг фамилияси ва исми	Қабул қилинган фамилияси ва исми	Йўқ қилин- ганлиги суборисида беши
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Гидривандлик воситалари, психотроп
моддалар ва прекурсорларни йўқ
қилиш тартиби тўғрисидаги Низомига
4-қисми

«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Раҳбар _____

Имзо _____
М.Ҳ. «__» _____ 200__ й.

Гидривандлик воситалари, психотроп моддалар
ва прекурсорларни йўқ қилиш тўғрисида
Даволатнома

Комиссия (уч кишидан кам бўлмаган) таркиби
Комиссия аъзолари _____

(Ф.И.О., лавозими, иш жойи)

Даволатнома тузилган жой _____

Сана, ой, йил _____

Гидривандлик воситаси, психотроп модда, прекурсор, дори тур, дотаси, ўлчов берилган, серияси) _____

_____ миқдорида

(ёзув билан)

қарори асосида

Йўқ қилиш усули: _____

Комиссия аъзоларининг имзоси: _____

- [illegible]

«Гиеҳвандлик воситалари, психотроп
моддалар ва прекурсорларни сотиш,
тақсимлаш, бериш, ҳисобини олиб
бориш, сақлаш шартлари
тўғрисидаги Низом»-га
3-илова

ШАКЛ

гиеҳвандлик дори воситаларининг махсус рецептура бланкалари учун

ТАРКИБИДА ГИЕҲВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИ БЎЛГАН ДОРИЛАРНИ ОЛИШ ХУҚУҚИНИ БЕРУВЧИ РЕЦЕПТ

ZZ № XXXXXX

(даволаш муассасасининг муҳри)

200_й.

М
А
Х
С
У
С

Х
И
С
О
Б

Х
У
Ж
А
Т
И

Rp _____

Қабул қилинди _____

Фуқаро _____

Касаллик тарихи № _____

Шифокор _____
(аниқ)

Д
О
Р
И
Х
О
Н
А
Д
А

Қ
О
Л
А
Д
И

М.Ў.

Сиеҳ билан тўлдирилади
Тузатишлар киритишга руҳсат этилмайди

Илова: Аввал тасдиқланган бланка намунаси пушти рангли химоя белгилари бўлган сув
коғози.

«Гийохvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni sotish, taqsimlash, berish, xisoblash olib borish, saqlash sharoitlari tuzilishidagi Nizom» ga
5-ildova

«Tasdiqlayman»
Raxbar
Imzo
Muxr
« » 20__ y.

**ГИЙОХВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИ ВА ПСИХОТРОП
МОДДАЛАРНИНГ РЕЦЕПТЛАРИНИ ЙЎҚ ҚИЛИШ
ДАЛОЛАТНОМАСИ**

Хайъат таркибида (3 та одамдан кам бўлмаслиги керак)
И.Ш. мансаби

Кун, ой, йил

Гийохvandlik vositalari va psixotrop moddalar receptlarini йўқ қилдилар

Қуйидаги миқдорда _____
(ёзма ҳолда)

Рецептлар ёқиш орқали йўқ қилинди.

Хайъат аъзоларининг имзоси:

352

NAZORAT SAVOLLARI

1. Giyoxvandlik vositalarini nazorat qilish bo'yicha xalqaro faoliyat va giyoxvandlik vositalarini nazorat qilish to'g'risidagi so'nggi xalqaro shartnomalar tarixi
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi Narkotiklar nazorati qo'mitasining Nizomi
3. Giyoxvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatini litsenziyalash
4. Litsenziya olish uchun zarur hujjatlar
5. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi Narkotiklar nazorati qo'mitasining Nizomi
2. Organizatsiya i ekonomika farmatsii. Pod red. I.V. Kosovoy. Moskva, 2004. 397 str
3. Upravlenie i ekonomika farmatsii Pod.red. E.E.Loskutovoy. Moskva 2003 god. 379 str.
4. Azizov I.K. O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning nazorati. Toshkent 2011 y. 376 bet.
5. Prokopishin V., Safta V., Brumerel M. Основы farmatsevticheskoy deyatel'nosti. Kishinev, 2003. – 488 s.

3- Mavzu: DORIXONALARDA SANITAR TARTIB

Reja

- * 1. Umumiy holatlar
- * 2. Dorixona qurilishiga va joylashishiga qo'yiladigan talablar
- * 3. Dorixonaning jixozlanishi va xonalariga qoyiladigan talablar
- * 4. Dorixona xonalarining sanitar holati
- * 5. Dorixona hodimlarining shaxsiy gigienasi va xonalarining tozaligiga qo'yiladigan sanitar talablar

Tayanch iboralar: sanitar tartib, shaxsiy gigiena, aseptik sharoit

Dorixonaning sanitar tartibi quyidagilardan iborat :

- 1) Dorixonaning xonalari va jihozlariga qo'yiladigan sanitar talablar;
- 2) Dorixonaning xonalari va dorixona jixozlarini tozalashga qo'yiladigan talablar;
- 3) Dorixona xodimlarining shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish talablari;
- 4) Tozalangan suv va in'eksiya uchun suvning olinishiga, berilishiga va saqlanishiga qo'yilgan sanitar me'yorlar;
- 5) Aseptik sharoitda tayyorlanadigan dorilarga va nostril dori shakllariga qo'yilgan sanitar me'yorlar;
- 6) Dorixona idishlarini yuvish, dezinfeksiya qilish va tozaligini nazorat qilish;
- 7) Predmetlar, turli materiallarni dezinfeksiya qilish tartibi rejim dezinfeksii razlichnykh materialov, predmetov i dr.

Sanitar me'yorlar, qoidalar va gigienik normativlarga rioya qilmaslik qonun oldida javobgarlikga olib keladi.

Tayyor dori vositalarini aholiga realizatsiya qilish bo'yicha belgilangan sanitar meyyorlar aholiga sifatli dori vositalarini etkazishni asosiy omilidir. Sanitar qoidalar va meyyorlar turli mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha dorixonalariga taaluqlidir.

Bu xujjatda belgilangan qoidalar tayyor dori vositalari, tibbiyot buyumlari va shaxsiy gigiena predmetlarini realizatsiya qiladigan baercha dorixonalariga tegishli

Belgilangan qoidalarda tayyor dorilar va shaxsiy gigiena predmetlari bilan realizatiya qiladigan dorixonalarning sanitar tartibi qurilishi va jixozlanishiga qo'yiladigan sanitar talablarni o'zida mujassamlashtirgan. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan turli mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha dorixonalar bu hujjadan foydalanishlari shart.

SanQ va M talablarini bajarish dorixona muassasasi rahbarlariga yuklatiladi

Dorixonaning qurilishi va joylanishiga qo'yiladigan talablar

- * Tayyor dori vositalari realizatsiyasi bilan shug'ullanadigan dorixonalar alohida binoda yoki ko'p qavatli binolarning birinchi qavatida joylanishi kerak
- * Dorixonalarni joylashtirishda bemorlar uchun alohida kirish joyini ajratish lozim. Bundan tashqari hovli tomonidan dorixonaning hodimlariga, tovarlarni qabul qilish va bo'sh idishlarni olib chiqish uchun joy ajratish shart.
- * Dorixona hodimlarini kirish joyini ajratishda tovarlarni olib kelish uchun mashinalarga maydoncha ajratiladi.
- * Alohida binoda joylashgan dorixonalar o'zini er uchastkasiga ega bo'lishi kerak. Bu er uchastkasi tasdiqlangan loyihaviy hujjat asosida bo'ladi. Uchastka hududi ko'kalamzorlashtirilgan bo'ladi. Ekilgan ekinlarning maydoni 50% dan kam bo'lmasligi lozim Uchastka hududi doim ozoda bo'lishi shart. Qish mavsumida qor va muzlardan bu hududni tozalash kerak. Keraksiz chiqindilarini eg'ish maydonchasi chegaralangan va sanitar holatida bo'lishi kerak. Binoga kirish zalida oyoq kiymlarni tozalash uchun sharoit yaratish kerak.
- * Veterinar dorixonalarda veterinar preparatlar ulgurji va chakana narxda sotiladi. Veterinar dorixonalarni joylashishida ham yuqoridagi talablarga rioya qilish shart. Bu dorixonalarning maydoni 15 m² dan kam bolmasligi lozim. Bu dorixonalarda markazlashtirilgan va avtonom isitish moslamalari, suv ta'minoti, kanalizatsiya, ventilyatsiya, hamda o't o'chirish va qo'riqlash signalizatsiyasi bo'lishi shart.
- * Veterinar dorixonalarda veterinar preparatlar ulgurji va chakana narxda sotiladi. Veterinar dorixonalarni joylashishida ham yuqoridagi talablarga rioya qilish shart. Bu dorixonalarning maydoni 15 m² dan kam bolmasligi lozim. Bu dorixonalarda markazlashtirilgan va avtonom isitish moslamalari, suv

ta'minoti, kanalizatsiya, ventilyatsiya, hamda o't o'chirish va qo'riqlash signalizatsiyasi bo'lishi shart.

- * Markazlashtirilgan issiq suv ta'minoti bo'lmasa suv elektr isitgich jixozlari bo'lishi kerak. Dorixona idishlarini zararsizlantirishda zaxiradagi issiq suv ta'minotini ta'minlash kerak. Sanitar texnik anjomlar va jixozlar (kranlar, rakovinalar, unitaz va boshqalar) yaroqli holatda (nuqsonlarsiz) bo'lishi lozim.
- * Savdo zalidagi havo harorati 16°C dan past bo'lmasligi, tovarlarni qabul qilish, saqlash xonalari, ma'muriy va maishiy xizmat xonalarining harorati 18-20°C da bo'lishi kerak. Dorixona honalarida nisbiy namlik 40-65% tashkil etishi lozim.
- * Isitish mavsumida xonalaridagi issiqlik darajasi bir xilda ta'minlanishi lozim. Zararli moddalar va hidlar bilan havoni ifloslantirnaslik kerak. Xonalarni ozoda, mexanik shikastlardan holi bo'lishini taminlash uchun ventilyatsiya tizimi bo'lishi lozim. Ventilyatsiya qurilmalariga passportlar tuzilishi kerak va ularga texnik va gigienik sinovlar 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Bu qurilmalar o'zining yo'riqnomasiga ega bo'ladi , yilning issiq va sovuq mavsumlarida konditsionerlardan foydalaniladi.
- * Saqlash xonalarida dorixonalarining rahbarlari tomonidan ularning harorat va namlik kursorlari nazorat qilinadi. Sovitkich yoki sovitish kameralarida haroratni hisobga olish kartasi olib boriladi.
- * Dorixonaning xonalari tabiiy yoki sun'iy yoritkich manbalari bilan jihozlanadi. Saqlash xonalarida, hodimlar xonalari va yo'laklarda faqat sun'iy yoritkich manbalaridan foydalaniladi.

Sun'iy yoritish amaldagi texnik meyyoriy huquqiy dalolatnomalarga mos kelishi shart.

.Dorixona xonalarining maydoni va minimal zaruriy tarkibi

- * . Dorixona xonalari dezinfeksiya vositalaridan foydalanilib tozalab turilishi zarur.
- * YOz mavsumida dorixona xonalaridagi derazalar quyoshdan himoyalovchi jalyuzilar bilan jixozlanadi.
- * Savdo zali xonani zararsizlantirish uchun bakteristid lampalari bilan jixozlanadi.
- * Rakovinalar, boshqa sanitar texnik jixozlar yaqinidagi devorlar namlikka chidamli materiallar bilan qoplanadi. Dorixona xonalaridagi shiftlar va devorlar har kuni dezinfeksiya vositalari bilan tozalanib turiladi. Dorixona assortimentidagi dori vositalari va tovarlarini saqlash uchun zarur bo'lgan jixozlar mavjud bo'lishi lozim. Bu jixozlar va mebellar gigienik qoplamalarga

ega bo'lishi, yuvuvchi va dezinfeksiyalovchi vositalarga chidamli materiallardan tayyorlangan bo'lishi kerak.

** DORIXONA XONALARINING SANITAR*

** HOLATI*

** Dorixona xonalarining issitilishi markazlashtirilgan va binolarda joylashgan dorixonalar shu binoning isitish tizimiga biriktirilgan bo'ladi.*

** Asosan tekis devorli radiatorlardan foydalaniladi, ularni changdan tozalash qulay imkoniyat yaratadi.*

** Xonalarni tez- tez shamollatib turish lozim .*

Xonalarni isitish, ventilyatsiya qilish meyoriy talablar asosida bolishi kerak

** Isitish davrida savdo zalidagi harorat 16°C dan kam bolmasligi lozim.*

** YOrug'lik manbaini tanlashda lyuminisent lampani mavjudligi e'tiborga olinadi.*

Tabiiy yoritishni ta'minlash uchun koefitsentni e'tiborga olish lozim. 4.9. Dorixonani suv bilan ta'minlash vodoprovod tarmog'iga ulash bilan amalga oshiriladi.

** Ovqat eyish xonasini ham sovuq suv va issiq suv bilan ta'minlash lozim.*

** Axlal eg'gichlarda germetik qopqoqlar bo'lishi shart.*

** Dorixona hodimlarining shaxsiy gigienasi va xonalariga qo'yiladigan sanitar talablar*

. Dorixonaning barcha xonalari har kuni dezinfeksiya vositalari bilan tozalanishi kerak.

** Deraza tokchalari yuvish vositalari bilan tozalanib turishi kerak.*

** Qo'l yuvadigan rakovinalar va sanitar usellar har kuni dezinfeksiyalanadi.*

** Dorixona xodimlari quyidagi shaxsiy gigena qoidalariga rioya qilishlari lozim:*

** - retsept asosida dori vositalarini tayyorlashdan oldin qo'lni yuvish va maxsus kiyim (tibbiyot xalati va qalpoqchasi) kiyishlari;*

** - maxsus kiyimda dorixona xududidan tashqariga chiqish mumkin emas.*

** Ish joylarida va xalatning cho'ntaklarida shaxsiy foydalaniladigan buyumlarni saqlash taqiqlanadi.*

** Dorixona xodimlari ishga kirishlaridan oldin majburiy tarzda tibbiy ko'rikdan o'tadilar, keyinchalik yo'riqnomaga asosan belgilangan davrda tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart. Natijalar asosida tibbiy ko'rik daftarchasi rasmiylashtiriladi.*

** Tibbiy ko'rik natijasida kasallik yoki bakteya tashuvchililar aniqlansa, ularni davolashga yuboriladi.*

Savdo zalida va boshqa xonalarda harorat va namlik sutkada bir marta o'lchanadi. Maxsus saqlash sharoitlari talab qilinadigan dori vositalari uchun vitrinalarga faqat

ikkilamchi

qadoq

qo'yiladi.

Dorixona assortimentidagi yaroqlilik muddati tugagan dori vositalari va tibbiy buyumlarini sotish taqiqlanadi.

Dorixona maxsus tibbiyot muassasasi bo'lib, u dori vositalarini tayyorlash va ularni sotish bilan shug'ullanadi. Dorixona xodimlari tozalikka va tartibga rioya qilishlari shart. Dorixona uchun sanitar tartibni tiklash lozim. :

Bemorlarni o'ziga jalb qilish uchun shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish.

NAZORAT SAVOLLARI

- * Umumiy holatlar
- * 2.Dorixona qurilishiga va joylashishiga qo'yiladigan talablar
- * 3. Dorixonaning jixozlanishi va xonalariga qoyiladigan talablar
- * 4. Dorixona xonalarining sanitar holati
- * 5. Dorixona hodimlarining shaxsiy gigienasi va xonalarining tozaligiga qo'yiladigan sanitar talablar

Foydalanilgan adabiyotlar:

- ▶ 1 San Pin N 0164-04 –farmatsevtika sanoati obektlarining sanitar, himoya zonalarini va korxonalarining sanitar guruhlanishi.
- ▶ 2 San Pin N 0162-04 – tayyor dori medikamentlarini realizatsiyasi bo'yicha dorixonalarining qurilishiga qo'yiladigan sanitar qoidalar va meyorlar
- ▶ 3 San Pin N 0319-15 – dori vositari va tibbiyot buyumlarining saqlash xonalarini ekspluatatsiyasiga , jihozlanishiga va qurilishiga qo'yiladigan sanitar qoidalar va meyorlar.
- ▶ 4 санитарные правила и нормы устройства, оборудования и эксплуатации аптеки
- ▶ SanPiN R.Uz № 0337-16 Издание официальное Ташкент – 2016 г.

4- Mavzu: DORIXONALARDA INFORMATSION TEXNOLOGIYA DASTURLARINI (M-APTEKA) QO'LLASH

Reja:

1. So'z boshi
2. Dorixonada axborot texnologiyalarini qo'llash uchun bajariladigan vazifalar.
3. Axborotlashgan farmatsevtik yo'lni amalga oshirish vazifalari.
4. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi.
- 5 Avtomatik boshqaruv tizimi "M – Apteka "
- 6 "Farmatsiya " Konfiguratsiyasi
- 7 Dorixona " Konfiguratsiyasi
- 8 Markaziy ofis" Konfiguratsiyasi
- 9 Ulgurji omborxona" Konfiguratsiyasi

Tayanch iboralar: M apteka, avtomatik boshqaruv tizimi, axborot texnologiyasi

► Bozor iqtisodiyoti sharoitida dorixona boshqaruvi ancha murakkab xisoblanadi.

► Bozor tizimi sharoitida dorixona tashkilotlarining xuquq va majburiyatlari oshadi, xamda ushbu sharoitdagi o'zgarishlarga moslashishni taminlaydi.

► Xozirda bozor tizimi sharoitida yangi xo'jalik aloqalari shakllandi.

► Kasbiy axborotlar natijasida dorixonalar ishi xam, savdo sotiq sifati xam rentabelligi ijobiy aks etadi. Dori vositalari xaqida malumotlar bemorlarga foyda keltiradi. Bilimga ega bo'lmagan dorixona mudirlarining xaridorga dori vositasi xaqida tushunarsiz va to'liq malumot bera olmasligi natijasida xaridorlar ushbu dorixonaga qaytib kirishlari dargumon.

► Dorixona muassasalarida muxim mavzular yuzasidan sodir bo'ladigan xatoliklar zamonaviylashgan axborot tizimisiz tuzatilmaydi.

Dorixonada axborot texnologiyalarini qo'llash uchun bajariladigan vazifalar.

Talablarni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarilishi shart:

- dorixona tashkilotlariga oid ishlarni o'rganish
- dorixona ishida axborot yo'lini o'rganish
- dorixona axborot ishi bosqichlari bilan tanishish
- dorixona axborot ishi yo'llarini taxlil qilish
- asosiy takliflarni ifodalash,
- dorixona axborot ishi yo'lida takomillashtirish ishlarini olib borish.

► Dorixona korxonalarini axborot bilan taminlash ishlari raqobatbardoshlikni oshiradi.

► Axborotlashgan dorixona korxonalarini yo'lga qo'yishda quyidagilar kerak:

- Marketing tadqiqotlar
- Meyoriy baza bilan taminlash
- Tovar xarakatlarini xisobga olish
- Rejalashtirish va taxlil
- Dorixona korxonalari reklamasi

Mamlakat siyosati ko'lamini milliy rejalashtirish uni zamonaviy dunyo raqobatiga ko'tarish, xamda milliy standart axborot texnologiyasini Evropa va dunyoga uyg'unlashtirish zarur.

Axborotlashgan farmatsevtik yo'lni amalga oshirish vazifalari.

Axborotlashgan farmatsevtik yo'lni amalga oshirishda asosiy vazifalarga quyidagilar kiradi:

- farmatsevtik ishlab chiqaruvchilarni maxsulot bilan taminlash;
497.	LARINZA	pastilkalar, granulalar 5,6 g
498.	LARINZA PLYUS	sirop 90 ml, 120 ml, 150 ml
499.	LATSIDOFIL WM	kapsulalar
500.	LEVMIKOL-GT	sirtga qoʻllash uchun surtma 25 g
501.	LEVOMEKDOL	sirtga qoʻllash uchun surtma 20 g, 30 g, 40 g
502.	LEVOMEKZIN	surtma 30 g, 40 g
503.	LEVOMEKOL	sirtga qoʻllash uchun surtma 40 g
504.	LEVOMEKSID	surtma 20 g, 25 g, 30 g, 40 g
505.	LEVOMEREM	sirtga qoʻllash uchun surtma 10 g, 15 g, 20 g, 25 g, 30 g, 40 g, 50 g
506.	LEVOMETIL	sirtga qoʻllash uchun surtma 30 g
507.	LEVOSIN	sirtga qoʻllash uchun surtma 40 g
508.	LEOKAL	sirop
509.	LEUKEYR	sirop 100 ml, kapsulalar
510.	LIV 52	tabletkalar, sirop 200 ml
511.	LIV 52 K	ichga qabul qilish uchun tomchilar 60 ml
512.	LIVAMIKOL-BXFZ	sirtga qoʻllash uchun surtma 30 g

513.	LIVIT	sirop 100 ml
514.	LIVOLIN FORTE	kapsulalar
515.	LIVOLIN-N	kapsulalar 300 mg
516.	LIVSON	ichga qabul qilish uchun suspenziya 60 ml
517.	LIVSON VITA	Kapsulalar
518.	LIZAK	apelsin, shokolad, anis va yalpiz ta'mli shimish uchun tabletkalar
519.	LINEKS	kapsulalar
520.	LINEKS DLYA DETEY	ichga qabul qilish uchun suspenziya tayyorlash uchun kukun
521.	LINEKS FORTE	kapsulalar
522.	LINEKSI PLYUS	kapsulalar
523.	LINIMENT BALZAMICHESKIY (PO VISHNEVSKOMU)	liniment 10 g, 15 g, 20 g, 25 g, 30 g, 40 g, 50 g
524.	LINKAS	sirop 90 ml, 120 ml, 150 ml, chaynaladigan tabletkalar, yalpiz, asal-limon, apelsin, qulupnay, olcha, ananas ta'mli pastilkalar, qandsiz asal-limon, yalpiz, apelsin, ananas, olcha, qulupnay ta'mli pastilkalar
525.	LINKAS BALZAM	surtma 25 g
526.	LINKAS BEZ SAXARA	sirop 90 ml, 120 ml, 150 ml
527.	LINKAS PLYUS EKSPEKTORANT	sirop 120 ml
528.	LINOLAKT	kapsulalar
529.	LIPONIL	kapsulalar
530.	LONGIDAZA	rektal suppozitoriyalar 3000 XB
531.	LORINGOSEPT	tabletkalar
532.	LOROBEN	ichga qabul qilish uchun sprej 30 ml, sirtga qo'llash uchun eritma 200 ml
533.	LORSILS	apelsin, asal-limon, mentol-evkalipt, qulupnay, limon ta'mli shimish uchun pastilkalar
534.	LOTOSED ATM	qobiq bilan qoplangan tabletkalar
535.	LOTOSONIK	qobiq bilan qoplangan tabletkalar
536.	LOFLATIL	qobiq bilan qoplangan tabletkalar
537.	LNA SEMENA	o'simlik xom ashyosi 50 g, 100 g
538.	LYUGOLYA RASTVOR S GLITSERINOM	suyuqlik 10 ml, 15 ml, 20 ml, 25 ml, 30 ml, 40 ml, 50 ml, 90 ml, 100 ml, eritma 10 ml, 15 ml, 20 ml, 25 ml, 30 ml, 40 ml, 50 ml, 90 ml, 100 ml
539.	LYUGS	sirtga qo'llash uchun eritma 1% li 20 ml
540.	MAALOKS	chaynaladigan tabletkalar, ichish uchun suspenziya 15 ml, 250 ml
541.	MAGVIT	kapsulalar
542.	MAGVIT V ₆	ichakda eruvchi qobiq bilan qoplangan tabletkalar
543.	MAGIKOR	qobiq bilan qoplangan tabletkalar 75 mg, 150 mg
544.	MAGNE V6	ichakda eruvchi qobiq bilan qoplangan tabletkalar, qobiq bilan qoplangan tabletkalar, ichga qabul qilish uchun eritma 10 ml
545.	MAGNE V6 PREMIUM	plyonka qobiq bilan qoplangan tabletkalar
546.	MAGNEVIT V ₆	kapsulalar
547.	MAGNIY PLYUS V6	plyonka qobiq bilan qoplangan tabletkalar

548.	MAGNIKOR	plyonka qobiq bilan qoplangan tabletkalar 75 mg/15,2 mg
549.	MAGNIKUM	ichakda eruvchi plyonka qobiq bilan qoplangan tabletkalar
550.	MAZ DLYA RAN	surtma 35 g
551.	MAKROVIT	pastilkalar
552.	MAKS ENEMA	xo'qna uchun eritma 66,6 ml, 133 ml
553.	MAKSAVIT FORTE	sirop 150 ml
554.	MAKSIBRAL	tabletkalar
555.	MAKSIGAN	tabletkalar
556.	MALUDROKS	chaynaladigan tabletkalar, meva ta'mli gel 200 ml
557.	MAMOKLAM	plyonka qobiq bilan qoplangan tabletkalar 100 mg
558.	MARASLAVIN	mahalliy qo'llash uchun suyuqlik 100 ml
559.	MARIMER	burun aerosoli 100 ml, burun tomchilari 5 ml
560.	MASTODINON	ichga qabul qilish uchun eritma 50 ml, 100 ml, tabletkalar
561.	MATAREN PLYUS	sirtga qo'llash uchun krem 30 g
562.	MAT-I-MACHEXI LISTYA	dorivor o'simlik xom ashyosi 25 g, 30 g, 40 g, 50 g, 100 g
563.	MEGOSIN	surtma 1% li 10 g, 20 g
564.	MEDINAK PLYUS	sirtga qo'llash uchun gel 30 g
565.	MEKOL-BORIMED	sirtga qo'llash uchun surtma 40 g
566.	MELISSI LEKARSTVENNOY TRAVA	dorivor o'simlik xom ashyosi 2 g, 25 g, 30 g, 40 g, 50 g, 100 g
567.	MEMOVIT V ₁₂	ichga qabul qilish uchun sirop 10 g va kukun 150 mg
568.	MENOVAZAN	sirtga qo'llash uchun eritma 10 ml, 25 ml, 40 ml, 50 ml, suyuqlik 25 ml, 40 ml, 50 ml
569.	MENOVAZIN	spirtli eritma 20 ml, 25 ml, 40 ml, 50 ml, surtma 25 ml, 40 ml, 50 ml, 90 ml, 40 g
570.	MENOPEYS	kapsulalar
571.	MENORISHAN	sirop 100 ml
572.	METEOSPAZMIL	kapsulalar
573.	METROGIL DENTA	stomatologiya geli 5 g, 10 g, 20 g
574.	METROGIL DENTA PROFESSIONAL	stomatologiya geli 20 g, 50 g

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING
BUYRUG'I**

**«DORIXONA MUASSASALARI TOMONIDAN TAYYORLANADIGAN VA IDISHLARGA
JOYLANADIGAN DORI VOSITALARINI TASHQI BEZAGIGA DOIR QOIDALARNI
TASDIQLASH HAQIDA»GI BUYRUQNI O'Z KUCHINI YO'QOTGAN DEB TOPISH
HAQIDA**

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 5-son, 67-modda)

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017 yil 3 fevralda ro'yxatdan
o'tkazildi, ro'yxat raqami 1129-1]**

O'zbekiston Respublikasining «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi [Qonuni](#) hamda Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 27 oktyabrdagi 365-son «Dori vositalarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida»gi [qaroriga](#) muvofiq buyuraman:

1. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2002 yil 15 apreldagi 177-son «Dorixona muassasalari tomonidan tayyorlanadigan va idishlarga joylanadigan dori vositalarini

tashqi bezagiga doir qoidalarni tasdiqlash haqida»gi [buyrug'i](#) (ro'yxat raqami 1129, 2002 yil 18 aprel) (O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2002 y., 8-son) o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir A. IKRAMOV

Toshkent sh.,
2017 yil 25 yanvar,
76-son

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING
BUYRUG'I**

**DORIXONA MUASSASALARIDA GIYOHVAND VA ZAHARLI MODDALAR
SAQLAGAN DORI VOSITALARINI SAQLASH, QO'RIQLASH VA YONG'INDAN
XABAR BERUVCHI TEXNIKA VOSITALARI BILAN JIHOZLASHGA DOIR
NAMUNAVIY TALABNOMANI O'Z KUCHINI YO'QOTGAN DEB TOPISH HAQIDA**

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 5-son, 68-modda)

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017 yil 3 fevralda ro'yxatdan
o'tkazildi, ro'yxat raqami 690-1]**

O'zbekiston Respublikasining «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi [Qonuniga](#) muvofiq buyuraman:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 1999 yil 5 martda 4/6-108-son bilan tasdiqlangan Dorixona muassasalarida giyohvand va zaharli moddalar saqlagan dori vositalarini saqlash, qo'riqlash va yong'indan xabar beruvchi texnika vositalari bilan jihozlashga doir [namunaviy talabnoma](#) (ro'yxat raqami 690, 1999 yil 2 aprel) o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir A. IKRAMOV

Toshkent sh.,
2017 yil 25 yanvar,
78-son

KELISHILGAN:

Ichki ishlar vaziri A. AZIZOV

2017 yil 21 yanvar

POSTANOVLENIE

KABINETA MINISTROV RESPUBLIKI UZBEKISTAN

**O VNESENII KORREKTIROVOK V PROGRAMMU LOKALIZATSII PROIZVODSTVA
GOTOVOY PRODUKSII, KOMPLEKTUYUSHIX IZDELIY I MATERIALOV**

(Sobranie zakonodatelstva Respubliki Uzbekistan, 2017 g., № 9, st. 134)

V selyax dalneyshego uglubleniya urovnya lokalizatsii proizvodstva, rasshireniya mejotraslevooy promyshlennoy kooperatsii, v tom chisle mejdu sub'ektami malogo predprinimatelstva i krupnymi predpriyatiyami respubliki, sozdaniya na baze mestnykh syrevykh resursov sovremennykh vysokotekhnologichnykh konkurentosposobnykh proizvodstv, obespechivayushix importozamещение i насыщение vnutrennego rynka neobходимыми potrebitelskimi tovarami i komplektuyushimi izdeliyami, ekonomiyu i ratsionalnoe ispolzovanie valyutnykh sredstv, sozdanie novykh rabochix mest i povysheniya zanyatosti naseleniya, Kabinet Ministrov postanovlyayet:

1. Prinyat predlojeniya Spetsialnoy mejvedomstvennoy komissii po obespecheniyu realizatsii Programmy lokalizatsii proizvodstva gotovoy produkcii, komplektuyushix izdeliy i materialov na osnove promyshlennoy kooperatsii:

o vnesenii korrektyrovok v Programmu lokalizatsii proizvodstva gotovykh vidov produkcii, komplektuyushix izdeliy i materialov na 2017 — 2019 годы, utverjdennoyu [postanovleniem](#)

Prezidenta Respubliki Uzbekistan ot 26 dekabrya 2016 goda № PP-2698, predusmatrivayuyshix vklyuchenie proektov lokalizatsii po perechnyu soglasno [prilojeniyu № 1](#);

ob isklyuchenii iz Programmy lokalizatsii proizvodstva gotovyx vidov produkcii, komplektuyuyshix izdeliy i materialov na 2017 — 2019 gody, utverjdennoy [postanovleniem](#) Prezidenta Respubliki Uzbekistan ot 26 dekabrya 2016 goda № PP-2698, Programmy lokalizatsii proizvodstva gotovyx vidov produkcii, komplektuyuyshix izdeliy i materialov na 2015 — 2019 gody, utverjdennoy [postanovleniem](#) Prezidenta Respubliki Uzbekistan ot 11 fevralya 2015 goda № PP-2298, i Programmy lokalizatsii proizvodstva gotovyx vidov produkcii, komplektuyuyshix izdeliy i materialov na 2014 — 2016 gody, utverjdennoy postanovleniem Prezidenta Respubliki Uzbekistan ot 4 fevralya 2014 goda № PP-2120, soglasno [prilojeniyu № 2](#).

2. Ustanovit, chto v otnoshenii organizatsiy, ukazannyx v [prilojenii № 1](#) k nastoyashemu postanovleniyu, lgoty, predusmotrennyye [pунктом 7](#) postanovleniya Prezidenta Respubliki Uzbekistan ot 26 dekabrya 2016 goda № PP-2698 «O merax po dalneyshey realizatsii perspektivnyx proektov lokalizatsii proizvodstva gotovyx vidov produkcii, komplektuyuyshix izdeliy i materialov na 2017 — 2019 gody», primenyayutsya po tamojennym platejam so dnya ofitsialnogo opublikovaniya nastoyashogo postanovleniya, a lgoty po nalogam — s pervogo chisla mesyasa, sleduyushogo za datoy ofitsialnogo opublikovaniya nastoyashogo postanovleniya.

3. Ministerstvu ekonomiki Respubliki Uzbekistan sovmestno s initsiatorami proektov v nedelnyy srok utverdit setevyye grafiki organizatsii proizvodstva i vypolneniya prognoznnyx ob'ёмov vypuska lokalizuemoy produkcii po proektam lokalizatsii, vklyuchennym v [prilojenie № 1](#) k nastoyashemu postanovleniyu.

4. Kontrol za ispolneniem nastoyashogo postanovleniya vozlojit na zamestitelya Prem'er-ministra Respubliki Uzbekistan R.S. Azimova.

Prem'er-ministr Respubliki Uzbekistan A. ARIPOV

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

«DORI VOSITALARI VA FARMATSEVTIKA FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA»GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA» 2016 YIL 4 YANVARDAGI O‘RQ-399-SON O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNINI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 14-son, 228-modda)

«Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida» 2016 yil 4 yanvardagi O‘RQ-399-son O‘zbekiston Respublikasi [Qonunini](#) amalga oshirish, dori vositalari va tibbiy buyumlarning ulgurji va chakana realizatsiyasini tartibga solish, aholini xavfsiz, sifatli va samarador dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom [1-ilovaga](#) muvofiq;

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom [2-ilovaga](#) muvofiq;

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilmagan dori vositalari va tibbiy buyumlar, O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan dori vositalarining g‘ayriqonuniy nusxalarini, shuningdek muomaladagi dori vositalari va tibbiy buyumlarni ularning inson sog‘lig‘iga zararli ta‘sirini tasdiqlovchi faktlar aniqlangan taqdirda muomaladan chiqarish va yo‘q qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining [4-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining [5-ilovaga](#) muvofiq ba’zi qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Vazirliklar va idoralar o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

5. Ushbu qaror 2017 yil 1 iyuldan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Sog‘liqni saqlash, ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2017 yil 6 aprel,
185-son

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish tartibi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar tomonidan tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom talablari tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilar (keyingi o'rinlarda ishlab chiqaruvchilar deb ataladi), shuningdek dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar (keyingi o'rinlarda ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar deb ataladi) uchun majburiydir.

3. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilar hamda ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlagan dori vositalari va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish qoidalari bo'yicha amalga oshiriladi.

4. Ishlab chiqaruvchilar faqat o'zlari ishlab chiqargan dori vositalari va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish huquqiga ega, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish uchun litsenziyaga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilar bundan mustasno.

5. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalarini va tibbiy buyumlarni dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilardan, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qiluvchi boshqa tashkilotlardan, shuningdek dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chet ellik ishlab chiqaruvchilardan hamda ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlardan xarid qilish huquqiga ega.

CHetdan olib kelinadigan, shuningdek, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilaridan sotib olinadigan dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini ulgurji sotish, ularni etkazib berishda ishtirok etuvchi vositachilar sonidan qat'i nazar, ulgurji savdo uchun sotib olingan qiymatidan 15 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorlarda belgilanadigan cheklangan savdo ustamolari qo'llanilgan holda amalga oshiriladi.

6. Ugurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalarini va tibbiy buyumlarni farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlarga, tibbiyot tashkilotlariga, shuningdek dori vositalaridan va tibbiy buyumlardan tibbiyotda qo'llash maqsadida o'z ehtiyojlari uchun foydalanuvchi tashkilotlarga realizatsiya qilish huquqiga ega.

7. O'zbekiston Respublikasida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni realizatsiya qilishga ruxsat etiladi.

2-bob. Asosiy tushunchalar

8. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

dori vositalari — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari;

dori moddalari (substansiyalar) — farmakologik, immunologik yoki metabolik faollikka ega bo'lgan yoxud tashxis qo'yish maqsadi uchun foydalaniladigan, tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik moddalar;

dori preparatlari — dozalangan, idishga joylangan-o'ralgan, qo'llanish uchun tayyor dori vositalari;

dorivor o'simlik xomashyosi — dori vositalarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun foydalaniladigan, tarkibida biologik faol moddalar bo'lgan o'simliklar yoki ularning qismlari;

sifatsiz dori vositasi va tibbiy buyum — yaroqsiz holga kelgan va (yoki) yaroqlilik muddati o'tgan dori vositasi va tibbiy buyum;

tibbiy buyumlar — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan buyumlar;

farmatsevtika faoliyati — dori vositalari va tibbiy buyumlar yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini, shuningdek ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni realizatsiya qilishni qamrab oladigan faoliyat;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari — intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan holda muomalaga kiritilgan dori vositalari;

qalbakilashtirilgan dori vositasi va tibbiy buyum — tarkibi yoki xususiyati to'g'risida yoxud ishlab chiqaruvchisi haqida yolg'on axborot ilova qilingan dori vositasi va tibbiy buyum;

muvofiglik sertifikat — sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofigligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

dori vositalari kesishgan kontaminatsiyasi — xom ashyo, oraliq mahsulot yoki tayyor mahsulotning boshqa xom ashyo yoki tayyor mahsulot bilan texnologik jarayon vaqtida, tashish yoki saqlashda ifloslanishi.

3-bob. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilishni tashkil etish tartibi va shartlari

9. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilishda davlat standartlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari talablariga, yong'in xavfsizligi qoidalari, mehnat muhofazasi qoidalari, texnika xavfsizligi qoidalariga va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarga rioya etilishi ta'minlanishi kerak.

10. Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar tegishli davlat standartlari talablariga muvofiq dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash va realizatsiya qilishda ularning sifatini va xavfsizligini ta'minlash talabiga javob beradigan tegishli binolarga, asbob-uskunalar va jihozlarga ega bo'lishi kerak.

11. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tashish va saqlashda ularning xavfsizligi, sifati va but saqlanishi ta'minlanishi shart.

12. Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini xarid qilish hamda ulgurji realizatsiya qilish taqiqlanadi.

13. Ugurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalarining qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar aniqlangan barcha holatlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini belgilangan tartibda yozma shaklda xabardor qilishi shart.

14. Ugurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning raqami, amal qilish muddati, shuningdek litsenziya bergan organ to'g'risidagi ma'lumotlarni tanishish uchun qulay bo'lgan va ko'rinadigan joyga joylashtirishi kerak.

15. Ugurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalari va tibbiy buyumlarning muvofiglik sertifikat bilan manfaatdor shaxslarning elektron yoki qog'oz shaklda tanishishlari uchun imkoniyat yaratishi shart.

16. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ulgurji realizatsiya qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4-bob. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilishni ta'minlash sharoitlari

17. Ugurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar binosining kirish qismida tashkilotning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan manzili va ish tartibi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi peshlavha bo'lishi kerak.

18. Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlarning omborxona binolari sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari, yong'in xavfsizligi qoidalari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarga javob berishi kerak.

19. Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlarning omborxona binolari dori vositalarining va tibbiy buyumlarning fizik-kimyoviy, farmakologik va toksikologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, dori vositalarining va tibbiy buyumlarning to'g'ri saqlanishini ta'minlaydigan sharoitlarga ega bo'lishi kerak.

20. Omborxona alohida qurilgan yoki noturar joyga aylantirilgan turar joy binolarining xonalarida joylashgan bo'lishi mumkin. Bunda omborxona boshqa xonalardan izolyasiya qilingan, alohida kirish yo'lakchasi va maydoniga ega bo'lishi kerak.

21. Omborxona turar joy binolarining noturar joyga aylantirilgan xonalarida joylashgan hollarda, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yuklash va tushirish turar joy binosi derazalari tagida amalga oshirilmaslgi kerak.

22. Omborxonada elektr ta'minoti, issiqlik va suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimi hamda havo almashtirish uskunasi bo'lishi kerak.

23. Omborxonaning dori vositalarini va tibbiy buyumlarni qabul qilish, saqlash, buyurtmalarni joylashtirish va berish xonalari bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak.

24. Omborxonaning asosiy saqlash xonalarida quyidagilar bo'ladi:

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni qabul qilish xonasi;

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni asosiy saqlash xonasi.

Saqlashning alohida sharoitlarini talab qiladigan dori vositalarini saqlash uchun xonalar maydoni saqlanayotgan dori vositalari hajmiga muvofiq bo'lishi kerak.

25. Omborxona quyidagi asbob-uskunalar va inventarlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak:

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash uchun stellajlar, tagliklar;

termolabil dori vositalarini saqlash uchun sovutish kameralari yoki maishiy sovutgichlar;

havo parametrlarini qayd qilish asboblari (termometrlar, gigrometrlar yoki psixrometrlar);

aloqida guruh dori vositalarini, hisob-kitob hujjatlarini va axborot beruvchi adabiyotlarni saqlash uchun qulflanadigan metall shkafklar yoki seyflar;

echinib kiyinish xonasida ustki va maxsus kiyimlarni va oyoq kiyimlarini saqlash uchun shkaf;

sanitariya holatini ta'minlash uchun dezinfeksiya vositalari va xo'jalik jihozlari.

5-bob. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni omborxonada qabul qilish va berish

26. Omborxonada dori vositalarini va tibbiy buyumlarni qabul qilish omborxonaning qabul qilish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. YUklash-tushirish ishlarini olib borishda dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yog'in-sochinlardan, quyosh nurlarining bevosita ta'sirlaridan, yuqori yoki past haroratdan himoya qilish ta'minlanishi kerak.

27. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni qabul qilish va saqlash joylari bir-biridan ajratilgan bo'lishi kerak.

28. Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari, shuningdek muomaladagi dori vositalari va tibbiy buyumlar ularning inson sog'lig'iga zararli ta'sirini tasdiqlovchi faktlar aniqlangan taqdirda, belgilangan tartibda muomaladan chiqarilishi va dalolatnoma tuzilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda yo'q qilib tashlanishi kerak. Bunda ular identifikatsiya yoki belgilangan tartibda yo'q qilingunga qadar boshqa dori vositalari va tibbiy buyumlardan alohida maxsus izolyasiya qilingan joyda dalolatnoma asosida saqlanishi kerak.

29. Omborxonaga qaytarilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar ular bo'yicha belgilangan tartibda qaror qabul qilingunga qadar identifikatsiya qilinib, alohida joyda saqlanishi kerak.

30. Texnik jihatdan tartibga solishi sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa hujjatlar talablariga muvofiq bo'lmagan holatlarda tahlillar natijalariga ko'ra omborxonaga qaytarilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar asosiy saqlash xonasiga o'tkazilishi mumkin.

31. Texnik jihatdan tartibga solishi sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa hujjatlar talablariga muvofiq bo'lmagan holatlarda tahlillar natijalariga ko'ra omborxonaga qaytarilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar dalolatnoma asosida rasmiylashtiriladi va belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

6-bob. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlashni tashkil qilish

32. Omborxonada barcha dori vositalari va tibbiy buyumlar stellajlarda va tagliklarda joylashtirilishi kerak. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni polda tagliklarsiz joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Tagliklar polda bir qatorda yoki stellajlarning balandligi hisobga olingan holda stellajlarda bir necha qavatda joylashtiriladi.

33. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash xonalari va ulardagi asbob-uskunalar, jihozlar toza holatda saqlanishi kerak.

34. Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalari va tibbiy buyumlarning buzilishi (to'kilishi, sochilishi, sinishi), mikroorganizmlar tomonidan shikast etkazilishi va dori vositalari kesishgan kontaminatsiyasining oldini olish uchun tegishli choralarni ko'rishi kerak.

35. Omborxonada hasharotlar, kemiruvchi va boshqa turdagi hayvonlardan saqlanadigan sharoitlarni yaratish va ularga qarshi qo'llaniladigan vositalar bilan ta'minlanish talab etiladi. Bunda kuchli ta'sir etuvchi vositalar ishlatilishi taqiqlanadi.

36. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash quyidagicha tizimlashtirilgan tarzda bo'lishi mumkin:

farmakologik guruhlar bo'yicha;
qo'llanish usullari bo'yicha.

37. Barcha dori vositalarini va tibbiy buyumlarni o'ramlarda tamg'alanishi tashqi tomonga qaratilgan holda taxlanishi va joylashtirilishi kerak.

38. Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlarda dori vositalarining hisobi yaroqlilik muddatlari bo'yicha elektron yoki qog'oz shaklida yuritiladi.

39. Dori vositalari omborxonalarda fizik-kimyoviy xususiyatiga qarab alohida, ishlab chiqaruvchilar tomonidan belgilangan sharoitlarda harorat, namlik va yorug'lik rejimlariga rioya qilgan holda saqlanishi kerak.

40. Omborxonada harorat va namlik har kuni maxsus elektron dasturda yoki sahifalari raqamlangan, tikilgan va muhrlangan (agar muhr mavjud bo'lsa) jurnalda qayd etilishi lozim.

41. YOrug'likdan himoya qilishni talab qiladigan dori vositalari qorong'i xonada yoki qora rangga bo'yalgan, eshiklari zich yopiladigan shkaflarda yoxud qopqog'i zich yopilgan yashiklarda saqlanishi kerak.

42. Termolobil dori vositalarini saqlashda ular tamg'alanishi yoki qo'llash bo'yicha yo'riqnomada ko'rsatilgan harorat rejimiga rioya etilishi kerak.

43. Dorivor o'simlik xomashyolari (avvaldan quritilgan) havo yaxshi aylanadigan, quruq xonalarda, yopiq (shisha, metall, yog'och) idishlarda saqlanishi kerak.

44. Bog'lovchi materiallardan iborat tibbiy buyumlarni saqlashga quyidagi talablar qo'yiladi:

bog'lovchi materiallar quruq, havo yaxshi aylanadigan, chang va kemiruvchilardan himoyalangan xonalarda saqlanadi. Sterillanmagan materiallarni isitilmaydigan xonalarda saqlashga ruxsat etiladi. Steril materiallarni harorat o'zgarishida o'ram sifatiga ta'sir qilmasligi uchun ularni harorat darajasi tez o'zgarmaydigan xonada saqlashga yo'l qo'yiladi;

sterillangan bog'lovchi materiallarini omborxonada saqlashda ularni ishlab chiqarish muddatlari bo'yicha taxlash zarur.

45. Rezina buyumlardan iborat tibbiy buyumlarni saqlashga bo'lgan talablar:

xona quyosh nuridan himoya qilingan bo'lishi kerak. YOrug'lik faqat sun'iy, elektr orqali bo'lishi lozim;

buyumlar solingan qutilar va shkaflar markaziy isitish batareyasidan 1 metrdan kam bo'lmagan, shuningdek pechlardan 5 metrdan kam bo'lmagan uzoqlikda joylashtirilishi kerak.

7-bob. YAkunlovchi qoidalar

46. Ushbu Nizom qoidalarini buzgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

47. Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchilar hamda tashkilotlarning mazkur Nizom talablariga rioya etishlari yuzasidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish tartibi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom talablari, ularning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, barcha dorixonalar uchun majburiydir.

3. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish faqat dorixonalar va dorixonalarning filiallari orqali amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan yoki dorixonalar tomonidan tayyorlangan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishga ruxsat beriladi.

2-bob. Asosiy tushunchalar

5. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

dori vositalari — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari;

dori preparatlari — dozalangan, idishga joylangan-o'ralgan, qo'llanish uchun tayyor dori vositalari;

sifatsiz dori vositasi va tibbiy buyum — yaroqsiz holga kelgan va (yoki) yaroqlilik muddati o'tgan dori vositasi va tibbiy buyum;

tibbiy buyumlar — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat etilgan buyumlar;

farmatsevtika faoliyati — dori vositalari va tibbiy buyumlar yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini, shuningdek ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni realizatsiya qilishni qamrab oladigan faoliyat;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari — intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan holda muomalaga kiritilgan dori vositalari;

qalbakilashtirilgan dori vositasi va tibbiy buyum — tarkibi yoki xususiyati to'g'risida yoxud ishlab chiqaruvchisi haqida yolg'on axborot ilova qilingan dori vositasi va tibbiy buyum;

muvofiglik sertifikat — sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofigligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

birlamchi o'ram — dori vositasi bilan bevosita aloqada bo'lgan konteyner yoki o'ram.

3-bob. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni tashkil etish tartibi va shartlari

6. Dorixonalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari talablariga hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlar talablariga javob berishi kerak.

7. Dorixonalar tegishli davlat standartlari talabiga muvofiq dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash va chakana realizatsiya qilishda ularning sifatini, xavfsizligini va bezararligini ta'minlash talabiga javob beradigan tegishli bino, asbob-uskunalar va jihozlariga ega bo'lishi kerak.

8. Dorixona mudiri oliy farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Dorixona filialining mudiri farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

9. Dorixonalar tomonidan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, berish, realizatsiya qilish qoidalariga va ularning sifatini ta'minlovchi saqlash sharoitlariga rioya etishi kerak.

10. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni dorixonalardan tashqarida sotish taqiqlanadi.

CHetdan olib kelinadigan, shuningdek, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilaridan sotib olinadigan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini chakana sotish ularni etkazib berishda ishtirok etuvchi vositachilar sonidan qat'i nazar, chakana savdo uchun ulgurji narxidan 20 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorlarda belgilanadigan cheklangan savdo ustamolari qo'llanilgan holda amalga oshiriladi;

ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlari belgilangan narxlarda sotiladi.

11. Belgilangan tartibda sertifikatlanishi lozim bo'lgan dori vositalari va tibbiy buyumlarni muvofiqlik sertifikatlarisiz chakana realizatsiya qilish taqiqlanadi.

12. Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini xarid qilish, chakana realizatsiya qilish hamda ulardan foydalanish taqiqlanadi.

13. Dorixonalar dori vositalarining qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar aniqlangan barcha holatlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini belgilangan tartibda yozma shaklda xabardor qilishi shart.

14. Dorixonalar farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning raqami, amal qilish muddati, shuningdek litsenziya bergan organ to'g'risidagi ma'lumotlarni yoki litsenziya nusxasini iste'molchilar tanishishi uchun qulay bo'lgan joyga joylashtirishi kerak.

15. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning chakana realizatsiyasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

16. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni tayyorlash tegishli litsenziyaga ega bo'lgan dorixonalar tomonidan amalga oshiriladi.

17. Dori vositalari dorixonalarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalaridan (substansiyalardan) tayyorlanadi.

18. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan tayyorlashga ruxsat etilgan dori vositalari ro'yxatiga kiritilmagan dori vositalarini tayyorlash taqiqlanadi.

19. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, shuningdek ularni saqlash, sifatini nazorat qilish hamda rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilaydigan tartibda dorixonalar tomonidan amalga oshiriladi.

4-bob. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish sharoitlarini ta'minlash

20. Dorixona dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni, shuningdek ularni tayyorlashni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxs shaklida yoki yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmasi shaklida tashkil etilishi mumkin. Dorixonalarning filiallari, davolash-profilaktika tashkilotlari dorixonalari ham dorixonalar jumlasiga kiradi.

21. Dorixonalar alohida binoda yoki turar joy va noturar joy binolarining birinchi qavatida joylashgan bo'lishi, dori vositalarini saqlash va qadoqlash uchun mo'ljallangan xonalar birinchi qavat ostidagi xonalarda joylashgan bo'lishi mumkin.

22. Dorixonalar binosining kirish qismida dorixonaning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan manzili va ish tartibi haqida ma'lumotlar ko'rsatilgan peshlavha bo'lishi kerak.

23. Dorixonalarda dori vositalari va tibbiy buyumlarning xavfsizligi, sifati va but saqlanishi uchun tegishli sharoitlar yaratilishi kerak.

24. Tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha dorixonalar dori vositalari va tibbiy buyumlarning O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq sotilishini ta'minlashi shart.

Dorixonalar belgilangan narxlar bilan Ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlarining qonunchilikka muvofiq tasdiqlangan ro'yxatini davlat va rus tillarida 12 shrift o'lchamidan kam bo'lmagan o'lchamda ko'rinadigan joyga osib qo'yishlari shart.

Dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan birga sotib oluvchiga identifikatsiya ma'lumotlari (nomi, dozasi, qadoqlash, miqdori), dori vositalari yoki tibbiyot buyumlarining nomi, ularni beruvchi shaxsga oid ma'lumotlar, berish sanasi va narxi ko'rsatilgan tovar cheki beriladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o'tkazilgan tekshirish uchun xarid qilish yoki nazorat natijalari bo'yicha olingan dori vositalari va tibbiyot buyumlarining narxini belgilash bo'yicha tartibni buzish faktini tasdiqlovchi tovar va kassa cheklari dorixonaning litsenziyasini to'xtatib turish yoki tugatish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

25. Dorixonalar sanitariya va gigiena ashyolarini, shifobaxsh oziqlantirish mahsulotlarini, ma'danli suvlarni, shuningdek davolash-kosmetika mahsulotlarini, biologik faol qo'shimchalarni realizatsiya qilishni ularning qo'llanishi va realizatsiya qilinishi uchun tegishli hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshirishi mumkin.

26. Dorixonada barcha dori vositalari va tibbiy buyumlar narxi ko'rsatilgan holda hamda dorixona javobgar shaxsining imzosi bilan sotuvga qo'yiladi.

Dorixona sotuv zali peshtaxtalarida faqat vrach retseptisiz beriladigan dori vositalari va tibbiy buyumlarni qo'yishga ruxsat beriladi. Bunda peshtaxtaga ichish uchun mo'ljallangan va tashqi qo'llaniladigan dori vositalari alohida-alohida joylashtiriladi.

Vrach retseptlari asosida beriladigan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini dorixona peshtaxtasiga qo'yish taqiqlanadi.

5-bob. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish tartibi

27. Dori vositalarini chakana realizatsiya qilish shakli va qoidalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan retseptlar bo'yicha yoki O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlagan, retseptsiz sotiladigan dori vositalari ro'yxatiga muvofiq amalga oshiriladi.

28. Dori vositasi va tibbiy buyumni berish paytida dorixonaning farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lgan xodimi dori vositasi va tibbiy buyumni sotib oluvchiga dori vositasi va tibbiy buyumni qo'llash tartibi, xususan, qo'llash davriyligi, bir marotabalik va sutkalik dozalari, qo'llash usuli, saqlash tartibi, yaroqlilik muddati va boshqalar haqida ma'lumot berishi lozim.

Dorixona xodimi dori vositasi va tibbiy buyumni sotib oluvchining e'tiborini dori vositasi va tibbiy buyumning qo'llash yo'riqnomasi bilan diqqat bilan tanishib chiqishga qaratishi kerak.

Dorixona xodimi mijozlar bilan bo'lgan munosabatda etika qoidalariga rioya etishi, professionallik va savodxonlik xislatlarini namoyon etishi lozim.

29. Dorixona xodimlari tomonidan dori vositasini sotib oluvchilarga zarur ma'lumotlar berilishi kerak. Sotib oluvchining talabiga binoan dorixona xodimi dori vositalari va tibbiy buyumlarning narxlar va ularning sifatini tasdiqlovchi hujjatlarni ko'rsatishi lozim.

30. Dori vositasini donalab sotishga ruxsat etiladi. Bunda joylash-o'rash materialida dori vositasining nomi, seriyasi, yaroqlilik muddati va ishlab chiqaruvchisi ko'rsatilishi kerak. Dori vositasini birlamchi o'rami buzilgan holda berish taqiqlanadi.

31. Dori vositalarini berish normasi vrach retseptiga muvofiq belgilanadi.

32. SHifokor tomonidan rasmiylashtirilgan retseptda dori vositasi uning bir marotaba qo'llanadigan eng yuqori dozasi bilan ko'proq dozada tayinlangan holatlarda dorixona xodimi ushbu dori vositasi eng yuqori dozasi yarmiga teng dozasi berishi shart.

33. Ambulatoriyada davolanishda imtiyozga ega shaxslarning ayrim toifalarini dori vositalari bilan imtiyozli ta'minlash dori vositalarini ambulatoriya-poliklinika muassasalari orqali yoxud dorixonalar orqali berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

SHaxslarning ayrim toifalariga imtiyozli retseptlar bo'yicha dori vositalari, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha dorixonalar orqali amalga oshiriladi.

34. Favqulodda holatlarda, bemorning yashash joyidan jo'nab ketishi, dorixonaga muntazam qatnashining iloji yo'qligi va boshqa shu kabi holatlarda dori vositalarini retsept

bo'yicha ikki oygacha bo'lgan muddat davomida qo'llash uchun zarur miqdorda berilishiga yo'l qo'yiladi.

35. Dori vositalari uzoq vaqt amal qiluvchi retsept asosida qisman berilganda retseptning orqa tomoniga dori vositasining miqdori va berilgan sana ko'rsatiladi hamda bemorga qaytarib beriladi. Bemorning dorixonaga navbatdagi murojaati paytida dori vositasining oldin olinganligi haqidagi belgilar hisobga olinadi.

Dori vositasi retseptda nazarda tutilgan miqdorda olib bo'linganda unga «Retsept haqiqiy emas» degan shtamp bosiladi va dorixonada qoldiriladi.

36. SHaxslarning ayrim toifalariga dori vositalarini imtiyozli berish uchun retseptlar dorixonalarda uch yil davomida, maxsus pushti rangdagi blankalar bo'yicha berilgan giyohvand vositalar retseptlari — 5 yil, psixotrop moddalar, etil spirti va anabolik vositalarga berilgan retseptlar — bir yil davomida, boshqa dori vositalariga berilgan retseptlar — uch oy davomida saqlanadi.

37. Saqlash muddati tugagandan so'ng retseptlar tegishli dalolatnoma rasmiylashtirilgan holda yo'q qilinadi.

38. Dorixonalar tomonidan shaxslarning ayrim toifalarini dori vositalari bilan retsept asosida imtiyozli ta'minlash amalga oshirilganda ushbu dori vositalari uchun to'lov sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan shartnomaga muvofiq dorixonalar hisobiga o'tkaziladi.

39. Dorixonalardan realizatsiya qilingan dori vositalari va tibbiy buyumlar qaytarib olinmaydi va shunga o'xshash dori vositalari va tibbiy buyumlarga almashtirilmaydi.

6-bob. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

40. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

41. O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha dorixonalarda ushbu Nizom talablariga rioya etilishini nazorat qilish dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana sotish va tayyorlash uchun litsenziya beruvchi organga yuklanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 185-son [qaroriga](#)

3-ILOVA

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalari va tibbiy buyumlar, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini, shuningdek muomaladagi dori vositalari va tibbiy buyumlarni ularning inson sog'lig'iga zararli ta'sirini tasdiqlovchi faktlar aniqlangan taqdirda muomaladan chiqarish va yo'q qilish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalari va tibbiy buyumlar, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini, shuningdek muomaladagi dori vositalari va tibbiy buyumlarni (keyingi o'rinlarda qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlar deb ataladi) ularning inson sog'lig'iga zararli ta'sirini tasdiqlovchi faktlar aniqlangan taqdirda muomaladan chiqarish va yo'q qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom talablari giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarni muomaladan chiqarish va yo'q qilishga tatbiq etilmaydi.

3. Mazkur Nizom talablarining dori vositalari va tibbiy buyumlar muomalasi bilan shug'ullanuvchi barcha tashkilotlar tomonidan bajarilishi shart.

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

chiqindilarni utilizatsiya qilish — chiqindilar tarkibidan qimmatli moddalarni ajratib olish yoki chiqindilardan ikkilamchi xom ashyo, yoqilg'i, o'g'it sifatida va boshqa maqsadlarda foydalanish;

qalbakilashtirilgan dori vositasi va tibbiy buyum — tarkibi yoki xususiyati to'g'risida yoxud ishlab chiqaruvchisi haqida yolg'on axborot ilova qilingan dori vositasi va tibbiy buyum;

sifatsiz dori vositasi va tibbiy buyum — yaroqsiz holga kelgan va (yoki) yaroqlilik muddati o'tgan dori vositasi va tibbiy buyum;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari — intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan holda muomalaga kiritilgan dori vositalari.

5. Qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlar ularning egalarining yoki sudning qarori bo'yicha muomaladan chiqariladi va yo'q qilinadi.

6. Qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlar aniqlangan taqdirda ularning egasi mazkur dori vositalari va tibbiy buyumlarni zudlik bilan muomaladan chiqarishi va 30 kun mobaynida yo'q qilishi lozim.

7. O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan dori vositalarining va tibbiy buyumlarni bojxonada rasmiylashtirish jarayonida, shuningdek sertifikatlashtirish sinovlari natijasida qo'llash uchun yaroqsizligi aniqlangan bo'lsa, bunday dori vositalari va tibbiy buyumlar O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqarib yuboriladi (reeksport) yoki yo'q qilingunga qadar bojxona rejimida joylashtiriladi va yo'q qilinadi.

8. Qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilish bilan bog'liq xarajatlar ularning egalari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

2-bob. Yo'q qilish usullari

9. Suyuq dori shakllari (ampulalardagi in'eksiya qilish uchun eritmalar, paketlar va flakonlardagi, aerosol ballonlardagi eritmalar, miksturalar, tomchilar) sindirib (ezilib), (aerosol ballonlar oldindan teshib qo'yiladi) hamda suv bilan kamida 1:100 nisbatda suyultirilib, hosil bo'lgan eritma kanalizatsiya tizimiga to'kiladi.

Bo'shagan ampulalar, aerosol ballonlar, paketlar va flakon qoldiqlari konteynerlarga joylashtiriladi va chiqindilarni utilizatsiya qilish talablariga muvofiq yo'q qilinadi.

10. Tarkibida suvda eriydigan moddalar bo'lgan qattiq dori shakllari (kukunlar, tabletkalar, kapsulalar) maydalanib kukun holiga kelgunga qadar eziladi, suv bilan kamida 1:100 nisbatda suyultirilib, hosil bo'lgan suspenziya (yoki eritma) kanalizatsiya tarmog'iga to'kiladi.

11. Tarkibida suvda erimaydigan moddalar bo'lgan qattiq dori shakllari (kukunlar, tabletkalar, kapsulalar), yumshoq dori shakllari (maz, suppozitoriylar), dori vositalarining transdermal shakllari, shuningdek substansiyalar faolsizlantirilib, maxsus konteynerlarga joylashtiriladi va chiqindilarni joylashtirish uchun maxsus ajratilgan joyga tashlanadi.

12. Tarkibida tirik organizmlar (tibbiy immunobiologik preparatlar) mavjud dori vositalari avval dezinfeksiyalovchi vositalar yordamida faolsizlantirilib, yuqori bosim hamda harorat ta'sirida ularning hujayralari parchalanadi va chiqindilarni joylashtirish uchun maxsus ajratilgan joyga tashlanadi.

13. Tibbiy buyumlar ularning fizik va kimyoviy xususiyatlarini hisobga olgan holda yo'q qilinadi.

14. Tarkibida radioaktiv elementlar mavjud bo'lgan dori vositalari va tibbiy buyumlar atrof muhitga bezararliligi to'g'risida tegishli komissiya xulosasi olingandan keyin, mazkur Nizom bilan tashkil etiladigan va unda nazarda tutilgan tartibda tasdiqlanadigan Komissiya tomonidan ularni yo'q qilish masalasi ko'rib chiqiladi.

3-bob. Yo'q qilish tartibi

15. Qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilish «Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida», «Ekologik nazorat to'g'risida» hamda «Chiqindilar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga amal qilgan holda amalga oshiriladi.

16. Qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilish uchun ularning egasining, tuman (shahar) hududiy tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi, tuman (shahar) davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi vakillari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi

Sog'liqni saqlash vazirligining Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasi (keyingi o'rinlarda Bosh boshqarma deb ataladi) vakillari ishtirokida besh kishidan kam bo'lmagan tarkibda yo'q qilish komissiyasi (keyingi o'rinlarda Komissiya deb ataladi) tuziladi.

Komissiya ishlarini tashkil etish qo'llashga yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarning egasi tomonidan amalga oshiriladi.

17. Komissiya dori vositalari va tibbiy buyumlarning atrof muhit uchun bezararligi, mazkur Nizomning [1-ilovasiga](#) muvofiq shakl bo'yicha ularning fizik-kimyoviy mutanosibligini e'tiborga olgan holda ularni yo'q qilish sanasi, usuli va joyini belgilash haqida qaror chiqaradi.

18. Yo'q qilinishi lozim bo'lgan dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilingunga qadar saqlash uchun javobgarlik qo'llash uchun yaroqsiz bo'lgan dori vositalari va tibbiy buyumlar egasi hisoblangan tashkilot zimmasiga yuklanadi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni egasi hisoblangan tashkilot rahbarining buyrug'i bilan moddiy javobgar shaxs tayinlanadi, buyruqda javobgar shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi, saqlashga qoldirilgan yo'q qilinishi lozim bo'lgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlarning nomlari va seriyalari, o'ramlari soni (miqdori) ko'rsatiladi.

19. Qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilish dori vositalari va tibbiy buyumlarning egasi yoki uning vakili ishtirokida Komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Yo'q qilish jarayoni foto yoki videosuratga olinadi.

20. Qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlar belgilangan tartibda yo'q qilingandan so'ng Komissiya tomonidan mazkur Nizomning [2-ilovasiga](#) muvofiq dalolatnoma tuziladi.

21. Dalolatnoma quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

a) qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilish sanasi, vaqti va joyi;

b) qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlar nomi (seriya raqami, yaroqlilik muddati, o'ramlari soni, miqdori (ishlab chiqaruvchining nomi ko'rsatilgan holda);

v) qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlar egasi, moddiy javobgar shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;

g) Komissiyaning yo'q qilish to'g'risidagi qarori;

d) yo'q qilish usuli;

e) qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilishda ishtirok etgan Komissiya a'zolarining familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi va lavozimi.

22. Yo'q qilish jarayonidan so'ng dalolatnoma tuziladi, u Komissiya a'zolari tomonidan imzolanadi, qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarning egasi hisoblangan tashkilot rahbarining imzosi va muhri (agar muhr mavjud bo'lsa) bilan tasdiqlanadi.

23. Dalolatnoma nusxalari dori vositalari va tibbiy buyumlar egasiga, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markaziga, shuningdek Bosh boshqarma vakiliga, buyruq va Komissiya qarori nusxalari hamda foto yoki videomateriallar bilan birgalikda taqdim etiladi.

24. Tergov ishlari yoki sud muhokamasi uchun dori vositalari va tibbiy buyum namunalari olingan taqdirda ular, saqlash muddatidan qat'i nazar, ko'rib chiqish oxiriga etmagunga qadar yo'q qilinmaydi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING

QARORI

FARMATSEVTIKA FAOLIYATINI LITSENZIYALASH TARTIBINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 20-son, 364-modda)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Dori vositalarini va tibbiyot buyumlarini sotish, farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 14 fevraldagi PQ-2773-son [qaroriga](#) muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash tartibi to'g'risidagi Nizom [1-ilovaga](#) muvofiq;

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun litsenziya berish bo'yicha hududiy komissiyalar to'g'risidagi Nizom [2-ilovaga](#) muvofiq;

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun litsenziya berish bo'yicha hududiy komissiyalarning namunaviy tarkibi [3-ilovaga](#) muvofiq;

Farmatsevtika faoliyatini (dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish bundan mustasno) litsenziyalash tartibi to'g'risidagi Nizom [4-ilovaga](#) muvofiq;

Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashda elektron axborot almashinuvi sxemasi [5-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo'yilsinki:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish huquqi uchun oldin berilgan litsenziyalar ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar amal qiladi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun berilgan litsenziyalar farmatsevtika faoliyatining boshqa yo'nalishlarini amalga oshirish huquqi uchun litsenziyalardan alohida beriladi va O'zbekiston Respublikasining barcha hududida amal qiladi.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari:

2017 yil 15 maygacha bo'lgan muddatda Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash bo'yicha hududiy komissiyalarni (keyingi o'rinlarda hududiy komissiyalar deb ataladi) tuzilishini, shuningdek ular faoliyatini tashkil etish choralari ko'rilishini;

hududiy komissiyalarning va tegishli ravishda ularning ishchi organlari — Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, sog'liqni saqlash hududiy boshqarmalari va Toshkent shahri Sog'liqni saqlash bosh boshqarmasining faoliyati muvofiqlashtirilishini ta'minlasinlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishi, shu jumladan dori vositalari va tibbiy buyumlarning narxini belgilash tartibi qo'pol ravishda buzilganligi oqibatida litsenziyasining amal qilishi to'xtatilgan dorixonalar va filiallarning manzillari reestrlari va xodimlari reestrlari ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek ko'rsatib o'tilgan ishlarni amalga oshirish uchun xarajatlarni qoplash manbalarini belgilash yuzasidan takliflar kiritsin;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ular tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 28 iyundagi 236-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2002 y., 6-son, 36-modda) bilan tasdiqlangan Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalovchi organlar [ro'yxatida](#):

a) «O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi» bo'limining [uchinchi xatboshi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin;

«Farmatsevtika faoliyati (dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish bundan mustasno)»;

b) «[Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari](#)» bo'limiga quyidagi tahrirdagi xatboshi qo'shilsin:

«Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish».

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining [6-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri A.K. SHadmanov zimmasiga hamda Vazirlar Mahkamasining Sog'liqni saqlash, ekologiya,

atrof muhitni muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2017 yil 12 may,
284-son

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 12 maydagi 284-sonli [qaroriga](#)

1-ILOVA

**Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash tartibi
to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash tartibini belgilaydi.

2. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari (keyingi o‘rinlarda — litsenziyalovchi organ deb ataladi) tomonidan litsenziya talabgorining davlat ro‘yxatidan o‘tgan manzili bo‘yicha amalga oshiriladi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash ushbu Nizomga [1-ilovadagi](#) sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash tadbirkorlik sub’ektlariga «yagona darcha» tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlari (keyingi o‘rinlarda «yagona darcha» markazi deb ataladi) yoki O‘zbekiston Respublikasi interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona portal (keyingi o‘rinlarda YAgona portal deb ataladi) orqali amalga oshiriladi.

4. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish faqat dorixonalar va ularning filiallari orqali amalga oshiriladi.

5. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun namunaviy (oddiy) litsenziyalar beriladi.

6. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun litsenziya (keyingi o‘rinlarda litsenziya deb ataladi) besh yil muddatga beriladi.

Litsenziya besh yildan kam muddatga faqat litsenziya talabgorining arizasiga binoan berilishi mumkin.

7. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun litsenziya olish farmatsevtika faoliyatining boshqa qismlariga litsenziya olish huquqini cheklamaydi.

Litsenziyani yoki unga doir huquqlarni boshqa shaxslarga berish taqiqlanadi.

2-bob. Litsenziya talablari va shartlari

8. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishda quyidagilar litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:

a) dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga, shuningdek dori vositalari va tibbiy buyumlar muomalasini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga majburiy rioya etish;

b) yuridik shaxs shtatida kamida bir xodim — oliy farmatsevtik ma’lumotga ega bo‘lgan, qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishi, shu jumladan dori vositalari va tibbiy buyumlarning narxini belgilash tartibi qo‘pol buzilganligi oqibatida litsenziyasining amal qilishi to‘xtatilgan dorixonalarining xodimlari reestriga (keyingi o‘rinlarda xodimlar reestri deb ataladi) kiritilmagan dorixona mudirining mavjudligi;

v) litsenziat tomonidan dorixona filiali ochilishida — yuridik shaxs shtatida kamida bir xodim — oliy farmatsevtik ma’lumotga yoki farmatsevt assistenti (yordamchisi) ixtisosligi bo‘yicha o‘rta maxsus kasbiy ma’lumotga ega bo‘lgan dorixona filiali mudirining mavjudligi;

g) xodimlar reestriga kiritilmagan shaxslardan dorixona va dorixona filiali xodimlari tarkibini shakllantirish;

- d) belgilangan tartibda dorixona va/yoki dorixona filiali mudiri malakasini oshirish;
- e) dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana sotish uchun mo'ljallangan, o'ziga mulk huquqi bilan yoki boshqa qonuniy asosda tegishli bo'lgan, mazkur Nizomga [2-ilovada](#) nazarda tutilgan talablarga muvofiq hamda qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishi, shu jumladan dori vositalari va tibbiyot buyumlarining narxini belgilash tartibi qo'pol buzilganligi oqibatida litsenziyasining amal qilishi to'xtatilgan dorixona, dorixona filialining manzillari reestriga kiritilmagan bino (xonalar)ning mavjudligi;
- j) mazkur Nizomga [2-ilovada](#) belgilangan talablarga muvofiq moddiy-texnik bazaning mavjudligi;
- z) dorixona mudiri o'zgarishi, dorixona filiali mudiri o'zgarishi, dorixona filiali yopilishi haqida mazkur holat yuz bergandan so'ng o'n kun muddatda litsenziyalovchi organga mazkur Nizomga [3-ilovada](#) keltirilgan shakl bo'yicha tuzilgan yozma ravishda xabarnoma taqdim etish;
- i) mazkur Nizomda belgilangan holatlar, muddatlar va miqdorlarda yig'im va davlat bojlarini to'lash.

3-bob. Litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar

9. Litsenziya olish uchun litsenziya talabgori bevosita «yagona darcha» markaziga o'zi kelib yoki YAgona portal orqali elektron tarzda quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

mazkur Nizomga [4-ilovada](#) keltirilgan shakl bo'yicha litsenziya berish to'g'risida ariza (keyingi o'rinlarda ariza deb ataladi);

litsenziya berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlaydigan ma'lumotlar.

Litsenziya berish to'g'risidagi arizada litsenziya talabgorining elektron manzili ko'rsatilganligi uning arizasi bo'yicha qabul qilingan qaror haqida YAgona portal orqali elektron shaklda xabarnoma olishga bo'lgan roziligi hisoblanadi.

10. Litsenziya talabgoridan ushbu Nizomning [9-bandida](#) nazarda tutilmagan boshqa hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

11. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari va Toshkent shahri Sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi tegishli hududiy komissiyalarning ishchi organi (keyingi o'rinlarda — ishchi organ deb ataladi) hisoblanadi.

Ishchi organ litsenziya berish uchun boshqa vakolatli organlarda mavjud bo'lgan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashda elektron axborot almashinuv sxemasiga muvofiq mustaqil oladi.

12. Bevosita murojaat etilgan holatlarda «yagona darcha» markazi xodimi litsenziyalovchi organ tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan davlat xizmati pasportiga muvofiq ariza to'liq to'ldirilganligini tekshiradi.

Ariza ro'yxatga olingandan so'ng «yagona darcha» markazi xodimi litsenziya talabgoriga qayd etish raqamini ko'rsatgan holda ariza qabul qilinganligi haqida yozma ma'lumot beradi yoki ariza nusxasiga tegishli belgini qayd etadi.

13. «YAgona darcha» markazi xodimi o'zi kelganida ariza qabul qilingan kunda, arizada qayd etilgan ma'lumotlarni maxsus shaklga tushirib, YAgona portal orqali tegishli litsenziyalovchi hamda ishchi organga yuboradi.

14. Litsenziya talabgori o'zi yashamaydigan joydan boshqa joydagi «yagona darcha» markaziga o'zi kelib murojaat qilgan hollarda ariza «yagona darcha» markazi tomonidan tegishli ishchi organga YAgona portal orqali yuboriladi.

Litsenziya talabgori arizani «yagona darcha» markaziga elektron saqlovchida taqdim etgan taqdirda «yagona darcha» markazi xodimi «yagona darcha» markazining o'ziga o'zi xizmat qilish uchun ajratilgan xonasida ariza YAgona portal orqali jo'natilishida yordam beradi.

15. YAgona portal orqali jo'natilgan ariza noyob ro'yxatga olish raqami berilgan holda avtomatik ravishda ro'yxatga olinadi.

4-bob. Arizani ko'rib chiqish va litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish

16. Litsenziya berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi uchun litsenziya talabgoridan ariza taqdim etilgan kunda qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida yig'im undiriladi. Dorixonalar filiali ochilishi bilan bir vaqtda litsenziya berish to'g'risida ariza berilgan taqdirda belgilangan yig'im har bir filial uchun undiriladi.

17. Litsenziya berish to'g'risidagi ariza litsenziya talabgori tomonidan YAgona portal orqali taqdim etilganda arizani ko'rib chiqish uchun yig'im summasi litsenziyalovchi organning hisob raqamiga o'tkaziladi.

«YAgona darcha» markaziga o'zi kelib murojaat qilingan taqdirda litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan yig'imning 10 foizi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining maxsus shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi.

Litsenziya talabgori berilgan arizani rad etgan taqdirda to'langan yig'im summasi qaytarib berilmaydi.

18. Litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror litsenziya talabgorining arizasi olingan kundan boshlab o'n besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda qabul qilinadi.

19. Litsenziya berish to'g'risidagi hujjatlarni ko'rib chiqish, ular yuzasidan xulosalar tayyorlash uchun litsenziyalovchi organda dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun litsenziya berish bo'yicha hududiy komissiyalar (keyingi o'rinlarda hududiy komissiya deb ataladi) tashkil etiladi.

Hududiy komissiya to'g'risidagi nizom va uning namunaviy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

20. Ariza «yagona darcha» markaziga taqdim etilgan sanadan boshlab ishchi organ:

ikki kun mobaynida muddatda litsenziya talabgorining litsenziya talab va shartlariga muvofiqligini mazkur Nizomga [5-ilovadagi](#) shakl bo'yicha joyiga chiqib o'rganish o'tkazuvchi ishchi organning vakolatli vakili familiyasi, ismi va otasining ismining bosh harflari, o'rganish o'tkazish sanasi va vaqti haqida «yagona darcha» markazini YAgona portal orqali yozma ravishda xabardor qilishi shart. Bunda «yagona darcha» markazi xodimi zudlik bilan litsenziya talabgorini o'rganish o'tkazish sanasi va vaqti, shuningdek vakolatli vakil haqida xabardor qiladi;

etti kun mobaynida hujjatlarni ko'rib chiqadi va vakolatli xodimning o'z vaqtida joyiga chiqib o'rganishini ta'minlaydi. Vakolatli vakil litsenziya talabgoriga o'z xizmat guvohnomasini ko'rsatib, litsenziya talablari va shartlariga muvofiqligini o'rganish tartibini unga tushuntiradi. Vakolatli vakil o'rganish ishlarini bir ish kuni davomida tugatishi shart;

o'n kun mobaynida litsenziya talabgorining mazkur Nizomning [8-bandida](#) qayd etilgan litsenziya talablari va shartlariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligini ko'rsatgan holda, litsenziyaning talab va shartlariga mosligini o'rganish bo'yicha xulosani, shuningdek hududiy komissiya yig'ilishi bayonnomasi loyihasini hududiy komissiyaga taqdim etadi.

Vakolatli vakillar sifatida yuqori malakaga ega tegishli ixtisoslik mutaxassislari hamda sanitariya-epidemiologiya nazorati organlarining mutaxassislari jalb qilinishi kerak.

Hududiy komissiya ishchi organ tomonidan Nizomning mazkur bandida belgilangan muddatlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlaydi.

21. Litsenziyalovchi organ litsenziya talabgori tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish uchun shartnoma asosida ishchi organning vakolatli vakillarini jalb qilish huquqiga ega.

22. Hududiy komissiya, unga ishchi organning xulosasi taqdim etilgan kundan e'tiboran ikki ish kuni mobaynida ishchi organning xulosasini ko'rib chiqib, imzolangan bayonnomani litsenziyalovchi organga kiritadi.

23. Litsenziyalovchi organ hududiy komissiya bayonnomani imzolagan kunda, litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarorni ko'rsatgan holda, uni tasdiqlaydi.

Hududiy komissiya tomonidan tasdiqlangan bayonnoma litsenziyalovchi organning litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarori hisoblanadi.

24. Hududiy komissiya litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinganidan so'ng ikki ish kuni mobaynida qabul qilingan qaror haqidagi xabarnomani YAgona portal orqali:

belgilangan tartibda litsenziya talabgoriga yuborish (topshirish) uchun «yagona darcha» markaziga;

tegishli hisobni yuritish uchun tegishli ishchi organga yuboradi.

25. Quyidagilarda:

Litsenziya berishga qaror qilinganligi to'g'risidagi xabarnomada litsenziya bank hisob raqami rekvizitlari va litsenziya berilganligi uchun davlat boji to'lash muddatlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Litsenziya berish rad etilgani to'g'risidagi xabarnomada rad etishning sabablari, qonunchilikning aniq normalari va litsenziya talabgori ko'rsatib o'tilgan sabablarni bartaraf etib hujjatlarni takroran ko'rib chiqishga taqdim etishi uchun etarli bo'lgan muddat ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish va hujjatlarni qayta ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lishi kerak.

26. Litsenziyalar ishchi organ tomonidan rasmiylashtirilib, litsenziyalovchi organ rahbari yoki u yo'qligida uning o'rinbosari tomonidan imzolanadi va belgilangan tartibda litsenziya talabgori tomonidan davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan so'ng uch kun muddatda beriladi.

Litsenziya talabgori mazkur Nizomga [4-ilovaning](#) XI bo'limida qayd etilgan litsenziya talab va shartlariga rioya etishini tegishli belgilarni qo'yish orqali tasdiqlagan taqdirda, litsenziya bitimini imzolash talab etilmaydi.

27. Litsenziya maxsus blankalarda rasmiylashtiriladi.

Litsenziya blankasi namunasi mazkur Nizomga [6-ilovada](#) ko'zda tutilgan namunaviy shakl asosida litsenziyalovchi organ tomonidan tasdiqlanadi.

Litsenziyalar blankalari qat'iy hisobda turadigan hujjatlar hisoblanadi, hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'ladi. Litsenziyalar blankalari litsenziyalovchi organ buyurtmanomasiga binoan «Davlat belgisi» davlat-ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan bosmaxona usulida tayyorlanadi. Litsenziyalar blankalarining hisobga olinishi, saqlanishi va ulardan maqsadli foydalanilishi, shuningdek berilgan, to'xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan va amal qilishi tugatilgan litsenziyalar haqidagi ma'lumotlar ishonchli va o'z vaqtida tegishli axborot resurslariga kiritish uchun litsenziyalovchi organ rahbari javob beradi.

28. Agar litsenziat litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilinganligi haqidagi xabarnoma yuborilgan (topshirilgan) vaqtdan boshlab uch oy mobaynida litsenziyalovchi organga litsenziya berilganligi uchun davlat boji to'lamasa, litsenziyalovchi organ litsenziyani bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.

29. Litsenziya berish «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining [17-moddasida](#) belgilangan asoslar bo'yicha rad etilishi mumkin.

Litsenziya talabgori litsenziyalovchi organning litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarori, shuningdek litsenziyalovchi organ mansabdor shaxsining xatti-harakati (harakatsizligi) yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

30. Litsenziya berishning rad etilishiga asos bo'lgan sabablar litsenziya talabgori tomonidan belgilangan muddatda bartaraf etilgan taqdirda, litsenziyalovchi organ tomonidan hujjatlarni takroran ko'rib chiqish hamda litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish, litsenziya talabgorining rad etilishiga sabab bo'lgan holatlarni bartaraf etganligi to'g'risidagi arizasi uni tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda olingan kundan boshlab o'n kundan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi. Litsenziya talabgorining arizasi qayta ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

Litsenziya talabgorining arizasi takroran ko'rib chiqishda ilgari yuborilgan litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada qayd etilmagan yangi asoslar bilan litsenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Litsenziya talabgori tomonidan litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin berilgan ariza yangidan berilgan ariza hisoblanadi va litsenziyalovchi organ tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

Litsenziya berishning rad etilishiga asos bo'lgan sabablar litsenziya talabgori tomonidan bartaraf etilganligi to'g'risidagi ariza va uni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar mazkur Nizomning [3-bobida](#) nazarda tutilgan tartibda taqdim etiladi. Bunda ishchi organning mazkur Nizomning [20-bandida](#) belgilangan tartibda amalga oshirishi lozim bo'lgan harakatlari muddati besh kundan oshib ketmasligi lozim.

31. Ishchi organ dorixona mudiri, dorixona filiali mudiri o'zgarganligi to'g'risidagi xabarnomani olgan kundan e'tiboran bir oy muddatda taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiradi va ular mazkur Nizomning 8-bandi [«v»](#), [«g»](#), [«d»](#) va [«e» kichik bandlarida](#) belgilangan litsenziya talab va shartlariga muvofiq ekanligi aniqlangan taqdirda reestrda tegishli o'zgartirishlarni kiritadi.

5-bob. Dorixonaning filialini ochish tartibi

32. Litsenziat tomonidan dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish bilan shug'ullanish uchun berilgan litsenziya doirasida dorixona filiali ochilgan taqdirda litsenziat litsenziyalovchi organga mazkur Nizomning [9-bandida](#) belgilangan tartibda tegishli ariza bilan murojaat qiladi.

33. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish bilan shug'ullanish uchun berilgan litsenziya doirasida dorixona filiali ochilgan taqdirda dorixona maydoni, filiali mavjud bo'lgan dorixonalariga qo'yiladigan sanitariya-epidemiologik me'yorlarga mos bo'lishi kerak.

34. Ariza ko'rib chiqilganligi uchun litsenziatdan eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida yig'im undiriladi.

Ariza ko'rib chiqilganligi uchun yig'im dori vositalari va tibbiy buyumlarini chakana realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi ochiladigan filiallar soni barobaridagi miqdorda undiriladi.

Litsenziatning litsenziya berish to'g'risidagi arizasi YAgona portal orqali taqdim etilganda yig'im summasi litsenziyalovchi organning hisob raqamiga o'tkaziladi.

«YAgona darcha» markaziga o'zi kelib murojaat qilingan taqdirda litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun belgilangan yig'imning 10 foizi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining maxsus shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi.

35. Arizani ko'rib chiqish mazkur Nizomning [4-bobida](#) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

36. Dorixona filiali uchun litsenziya quyidagi qo'shimcha talablarni nazarda tutgan holda, mazkur Nizomning [27-bandiga](#) muvofiq rasmiylashtiriladi:

«tire» belgisi orqali litsenziatga dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish bilan shug'ullanish uchun berilgan litsenziya ro'yxat raqami hamda ochilayotgan filial tartib raqamini ko'rsatish;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish amalga oshiriladigan filial manzilini ko'rsatish.

37. Dorixona filiali uchun litsenziya berishda davlat boji undirish talab etilmaydi.

6-bob. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish, uning amal qilish muddatini uzaytirish, dublikat berish

38. Litsenziat qayta tashkil etilgan, uning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, litsenziat yoki uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bir oy muddatda mazkur Nizomning [9-bandida](#) belgilangan tartibda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

YAngidan yuzaga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida faoliyatning ayni bir litsenziyalanadigan turini (uning qismini) amalga oshirish uchun litsenziyaga ega yuridik shaxslar bo'lmish litsenziatlar qo'shib yuborilgan taqdirda, mazkur Nizomning [9-bandida](#) belgilangan tartibda litsenziyani qayta rasmiylashtirishga yo'l qo'yiladi.

Litsenziyaning amal qilishi litsenziyalanadigan faoliyat turining bir qismi (qismlari) uchun tugatilgan taqdirda, litsenziya qayta rasmiylashtiriladi.

Mazkur Nizomning [27-bandiga](#) muvofiq ravishda rasmiylashtirilgan litsenziya litsenziat tomonidan «yagona darcha» markaziga bevosita taqdim etiladi. «Yagona darcha» markazi xodimi litsenziyani olgan kundan e'tiboran uch kun muddatda uni litsenziyalovchi organga taqdim etadi.

Ishchi organ ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali oladi.

39. Litsenziat litsenziya qayta rasmiylashtirilguniga qadar unda ko'rsatilgan faoliyatni ilgari berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

40. Litsenziyani qayta rasmiylashtirishda litsenziya talabgorining litsenziya berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza Yagona portal orqali taqdim etilganda yig'im summasi litsenziyalovchi organning hisob raqamiga o'tkaziladi.

«Yagona darcha» markaziga o'zi kelib murojaat qilingan taqdirda litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun belgilangan yig'imning 10 foizi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining maxsus shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi.

41. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza «yagona darcha» markazi olgan kundan yoki Yagona portal orqali litsenziyalovchi organ tomonidan olingan kundan boshlab besh kun mobaynida amalga oshiriladi.

42. Litsenziyalovchi organ litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqib, litsenziyani mazkur Nizomning [27-bandiga](#) muvofiq rasmiylashtiriladi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirish jarayonida litsenziyalovchi organ litsenziyalar reestriga tegishli o'zgartirishlarni elektron tarzda kiritadi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirishda ilgari berilgan litsenziyaning amal qilish muddati o'zgarmaydi.

43. Litsenziya yo'qotib qo'yilgan yoki u yaroqsiz holga kelib qolgan taqdirda dublikat beriladi. Dublikat olish uchun litsenziat ariza bilan «yagona darcha» markaziga o'zi kelib yoki Yagona portal orqali litsenziyalovchi organga ariza va litsenziya yo'qotib qo'yilganligini tasdiqlovchi hujjat bilan murojaat qiladi.

Litsenziya dublikati berishda litsenziya berganlik uchun nazarda tutilgan yig'im summasining yarmi miqdorida to'lov undiriladi.

44. Litsenziyaning amal qilish muddati litsenziatning arizasiga binoan uzaytirilishi mumkin. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish mazkur Nizomning [2](#), [3](#) va [4-boblarida](#) nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza organga mazkur Nizomning [9-bandiga](#) muvofiq litsenziyaning amal qilish muddati tugagunga qadar ikki oydan kechikmasdan berilishi kerak. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish litsenziya olish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

7-bob. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish

45. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi yuzasidan nazorat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziyalovchi organ tomonidan amalga oshiriladi.

46. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirishda litsenziyalovchi organ o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejali tekshirish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilganligi holatlari bo'yicha bergan murojaatlari asosida maxsus vakolatli organ — Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi qarori bo'yicha litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishining tekshirishlarini o'tkazish;

litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi yuzasidan tekshirish o'tkazishda tegishli ixtisoslik bo'yicha mutaxassislarni jalb qilish;

litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirishda paydo bo'ladigan masalalar bo'yicha litsenziatdan zarur axborotni so'rash va olish;

tekshirishlar natijalari asosida, litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlarining aniq buzilishlarini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzish;

litsenziatga aniqlangan buzilishlarni bartaraf etishni yuklovchi qarorlar chiqarish va litsenziat aniqlangan bunday buzilishlarni bartaraf etishi shart bo'lgan muddatlarni belgilash;

litsenziyalarning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaror chiqarish yoki sudga murojaat qilish;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti tomonidan taqdim etilgan tegishli materiallar, shu jumladan tekshirish uchun xarid qilish va nazorat ostida olish bo'yicha materiallar asosida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xususiyashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalarining tekshiruv hujjatlari asosida dori vositalari va tibbiy buyumlarga narx belgilash tartibi qo'pol ravishda buzilganligi uchun dorixona, dorixona filialiga berilgan litsenziyaning amal qilishini to'xtatish to'g'risida belgilangan tartibda qaror chiqarish;

47. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirishda litsenziyalovchi organning tekshiruvchi xodimlari tomonidan ikki nusxada dalolatnoma tuziladi, ularning bittasi litsenziatga beriladi, ikkinchi nusxasi litsenziyalovchi organda qoladi.

8-bob. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish va bekor qilish

48. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish va bekor qilish «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining [22](#), [23](#) va [24-moddalarida](#) nazarda tutilgan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

Amal qilishi to'xtatib turilgan, to'xtatilgan va bekor qilingan litsenziyalar haqidagi ma'lumotlar litsenziyalovchi organ tomonidan tegishli axborot resurslariga kiritiladi.

49. Litsenziyaning amal qilishi belgilangan tartibda to'xtatilishiga olib keladigan, litsenziya talablari va shartlarini qo'pol ravishda buzilishi holatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

muntazam ravishda (bir yil davomida ikki va undan ortiq marta) litsenziya talablari va shartlari, shu jumladan dori vositalari va tibbiy buyumlariga narx belgilash tartibi buzilishi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni muvofiqlik sertifikatlarisiz saqlash va (yoki) realizatsiya qilish;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan, sifatsiz, qalbakilashtirilgan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini saqlash va (yoki) realizatsiya qilish;

dori vositalari va tibbiy buyumlarning farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lmagan shaxs tomonidan realizatsiya qilinishi;

dorixonaga oliy farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lmagan shaxs, dorixona filialiga farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lmagan shaxsning mudirlik qilishi;

dorixona filiali tomonidan litsenziyalanadigan faoliyat litsenziyasiz amalga oshirilishi.

50. Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish va bekor qilish to'g'risidagi qarori yuzasidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Litsenziyalovchi organ qarorining asossiz ekanligi sud tomonidan e'tirof etilgan taqdirda, litsenziyalovchi organ litsenziat oldida uning ko'rgan zarari miqdorida javob beradi.

9-bob. Litsenziyalar reestri

51. Litsenziyalovchi organ «Litsenziya» axborot tizimi kompleksi orqali litsenziyalar reestrini yuritadi.

52. Litsenziyalar reestrda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

a) litsenziatlar to'g'risidagi tashkilotning nomi va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, tashkiliy-huquqiy shakli, tashkilot rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismini (mavjud bo'lgan holda) o'z ichiga oladigan asosiy ma'lumotlar;

b) dorixona mudiri, dorixona filiali mudiri haqidagi ma'lumotlar: familiyasi, ismi, otasining ismi (mavjud bo'lgan holda);

pasportga oid ma'lumotlar (seriyasi, ro'yxat raqami, berilgan vaqti, pasportni bergan organning nomi);

dorixona mudiri uchun — oliy farmatsevtik ma'lumot haqidagi diplomi ma'lumotlari (seriyasi, ro'yxat raqami, berilgan sanasi, kim tomonidan berilgan), farmatsevti assistenti (yordamchisi)ning o'rta maxsus ma'lumot haqidagi diplomi ma'lumotlari;

mutaxassislik nomi;

v) litsenziyalanadigan faoliyat turi amalga oshiriladigan manzil (manzillar), ish telefoni, faks;

g) litsenziya berilgan sana va tartib raqami;

d) litsenziyaning amal qilish muddati;

e) litsenziyalanadigan faoliyat turi;

j) litsenziyani qayta rasmiylashtirish, amal qilish muddatini uzaytirish, uning amal qilish muddatini to'xtatib turish va tiklashning asoslari va sanasi;

z) litsenziyaning amal qilishini to'xtatishning asoslari va sanasi;

i) litsenziyani bekor qilishning asoslari va sanasi.

53. Litsenziyalovchi organ litsenziyalar reestrini yuritish vakolatini ishchi organga berish huquqiga ega.

54. Litsenziyalarning reestrlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar litsenziyalovchi organning veb-saytida «Litsenziya» axborot tizimi kompleksida joylashtiriladi va tanishish uchun ochiq bo'ladi.

10-bob. Manzillar va xodimlar reestri

55. Litsenziyalovchi organ qonun hujjatlari talablari buzilganligi, shu jumladan dori vositalari va tibbiy buyumlarning narxini belgilash tartibi qo'pol ravishda buzilganligi oqibatida litsenziyaning amal qilishi to'xtatilgan dorixona, dorixona filialining manzillari reestri va xodimlari reestrini shakllantiradi.

56. Litsenziyalovchi organ qonun hujjatlari buzilganligi, shu jumladan dori vositalari va tibbiy buyumlarning narxini belgilash tartibi qo'pol ravishda buzilganligi oqibatida litsenziyasining amal qilishi to'xtatilganligi to'g'risidagi sudning qarorini olgan kundan e'tiboran bir kun muddatda qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan tuzilgan tekshiruv dalolatnomasi asosida manzillar reestri va xodimlar reestriga dorixona va dorixona filiallari manzillari va xodimlari haqidagi ma'lumotlarni kiritadi.

57. Manzillar reestri va xodimlar reestri litsenziyalar reestrining bir qismi hisoblanadi va quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

a) tashkilotning to'liq nomi va uning soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

b) qonun hujjatlari talablari buzilganligi, shu jumladan dori vositalari va tibbiy buyumlarning narxini belgilash tartibi qo'pol ravishda buzilganligi aniqlangan dorixona, dorixona filialining to'liq manzili;

v) qonun hujjatlari talablarini buzgan, shu jumladan dori vositalari va tibbiy buyumlarning narxini belgilash tartibini qo'pol buzgan xodimlarning familiyasi, ismi, otasining ismi;

g) qonun hujjatlari talablari buzilganligi, shu jumladan dori vositalari va tibbiy buyumlarning narxini belgilash tartibi qo'pol ravishda buzilganligi oqibatida litsenziyaning amal qilishini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilgan sudning nomi, qaror qabul qilingan sana va ro'yxat raqami.

58. Litsenziyalovchi organ mazkur Nizomning [55-bandida](#) ko'zda tutilgan manzillar reestri va xodimlar reestriga kiritilgan ma'lumotlarni ular kiritilgan vaqtdan e'tiboran uch yil o'tganidan so'ng reestrda chiqarib tashlaydi.

59. Manzillar reestri va xodimlar reestridagi ma'lumotlar tanishish uchun ochiq bo'ladi.

11-bob. Litsenziya berilganligi uchun davlat boji to'lash tartibi

60. Litsenziya berilganligi yoki uning amal qilish muddati uzaytirilganligi uchun litsenziya talabgori, litsenziat tomonidan eng kam oylik ish haqining o'n baravari miqdorida davlat boji to'lanadi.

61. Litsenziya talabgori tomonidan ariza YAgona portal orqali taqdim etilgan taqdirda davlat boji summasi Respublika byudjetiga yo'naltiriladi.

«YAgona darcha» markazlariga o'zi kelib murojaat qilgan taqdirda, to'lanadigan davlat bojining 10 foizi miqdoridagi mablag'lar «yagona darcha» markazi faoliyatini moliyalashtirish manbai sifatida, keyinchalik tushadigan mablag'lar «yagona darcha» markazlarini saqlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni rag'batlantirishga yo'naltirilishi uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nomiga ochilgan maxsus shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi.

12-bob. YAkuniy qoida

62. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash tartibi to'g'risidagi [nizomga](#)

1-ILOVA

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash SXEMASI



Dori vositalari va tibbiy buyumlarini chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash tartibi to'g'risidagi [nizomga](#)

2-ILOVA

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun moddiy-texnika bazaga, binoga (xonaga) qo'yiladigan TALABLAR

I. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun binoga (xonaga) qo'yiladigan talablar

1.1. Egalik qilish huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq (ijara shartnomasi va boshqalar) bino (xona) mavjudligi;

1.2. Xonalari joylashgan manzil aniqlangan qonun hujjatlari buzilishi, shu jumladan dori vositalari va tibbiy buyumlar narxini belgilash tartibi qo'pol ravishda buzilishi oqibatida amal qilishi to'xtatilgan dorixonalarining manzilli reestriga kiritilmagan bo'lishi kerak.

1.3. Dorixona va uning filiallari quyidagicha joylashtirilishi mumkin:

alohida binolarda (faqat birinchi qavatda);

turar joy binolari yoki noturar joy xonalariga taqab qurilgan binolarga (faqat birinchi qavatda) qurilgan binolarda;

ko'p qavatli jamoat binolari va turar joy binolarining birinchi qavatida.

1.4. Dorixona va ularning filiallari turar joy binolari va jamoat binolarining birinchi qavatida joylashganda, ular dorixonaga tashrif qiluvchilar uchun alohida ko'chadan kirish eshigi hamda tovarlarni qabul qilish va bo'sh idishlarni olib ketish uchun mo'ljallangan, hovli tomonga qaratilgan xizmat eshigi bo'lishi kerak. Xizmat eshigi oldida tovar tashuvchi avtomobillar uchun tovar tushirish va ortish maydonchasini ko'zda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1.5. Dorixona va dorixona filiallarining barcha xonalari ular bajaradigan funksiyalariga qarab bir-biri bilan o'zaro funksional bog'liq holda hamda boshqa maqsadda foydalaniluvchi xonalardan ajratilgan blokni tashkil qilib, alohida kirish eshigiga ega bo'lgan holda joylashtirilishi zarur. Dorixona omborxonasi binoning pastki qismida, xona balandligi 2,4 metrdan kam bo'lmagan holda joylashtirilishi mumkin.

1.6. Dorixona xonalari ishlab chiqarish (tovarlarni qabul qilish, tayyorlash, saqlash va berishga jalb etilgan barcha xonalar) va ma'muriy-maishiy (idora, buxgalteriya, kiyinish xonasi, hojatxona va shu kabilar) xonalarga bo'linadi.

1.7. Dorixona va uning filiallari binolarining minimal zarur tarkibi va maydoni:

